

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI

“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI

HOMIDOV HASAN ANVAR O‘G‘LI

**“MUSTAQIL O‘ZBEKISTON PENSIYA TA‘MINOTI
TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI”**

5231300 -“Pensiya ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Pensiya ishi” kafedra mudiri

_____ **i.f.n. B.Mamatov**

“ _____ ” _____ **2016 y.**

Ilmiy rahbar:

_____ k.o‘q. Sh. Hamdamov

“ _____ ” _____ **2016 y.**

TOSHKENT – 2016

MUNDARIJA

betlar

KIRISH.....	3
1-BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	7
1.1. Pensiya ta'minoti tizimlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	7
1.2. Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....	18
1.3. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari.....	26
2-BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING AMALIY FAOLIYATI TAHLILI.....	35
2.1. Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini boshqarish amaliyoti tahlili.....	35
2.2. Pensiya ta'minoti tizimini mablag' bilan ta'minlash amaliyoti tahlili.....	46
2.3. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlari tahlili.....	56
3-BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	65
3.1. Pensiya tizimini isloh qilishni jahon tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	65
3.2. Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etish va takomillashtirish.....	73
XULOSA.....	85
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	90

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, 1990-yillar boshidan bozor munosabatlariga o'tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini, ayniqsa nochor guruhlarni aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi, pensiya jamg'armasi, ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar va nafaqalar indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar amal qila boshladi. Alohida bir fuqaroga, fuqarolar toifalariga boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlar berish orqali ularning to'laqonli hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida: "O'tgan yili 215 mingdan ziyod muhtaram faxriylarimiz bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Ehtiyojmand nogironlarga 11 mingdan ortiq yuqori sifatli protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari bepul topshirildi. 70 mingga yaqin keksa avlod vakillari to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va statsionar hamda sanatoriy-kurort muassasalarida o'z sog'lig'ini tikladi. 100 yoshga to'lgan nuroniylarning pensiyasiga eng kam oylik ish haqi miqdorida ustamalar qo'shib berildi"¹, deb ta'kidlagan edilar. Albatta, ushbu fikrlar pensiya ta'minoti tizimi masalasiga bevosita taalluqli hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minot choralariga fuqarolarning pensiya ta'minoti (keksalik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha) va ijtimoiy nafaqalar (nogiron bolalarga, bolalikdan nogironlarga, ishlamagan yolg'iz nogiron va keksalarga), muhtojlarni bepul protez-ortopediya va harakatlanish vositalari,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi: Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. <http://uza.uz>.

eshitish moslamalari, hassa va qo'ltiqtayoqlar bilan ta'minlash, nogiron bolalarni kasbga o'qitish va ishga joylashishida yordam ko'rsatish, bepul sanatoriy va dam olish uylarida sog'lomlashtirish, bepul tibbiy xizmat, bepul ta'lim berish, turar joy, maishiy xizmat, soliqlarga aloqador imtiyozlar va kafolatlar kiradi.

Albatta, pensiya ta'minoti ijtimoiy ta'minotning muhim shakllaridandir, ya'ni ijtimoiy ta'minotning eng muhim shakli – fuqarolarga davlat tomonidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalardir.

Hozirgi paytda pensiya ta'minoti tizimi eng muhim institutlardan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat ko'rsatishi mamlakatning ijtimoiy farovonligi darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, davlat pensiya ta'minoti tizimi fuqarolarning pensiya yoshiga etganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini boshqarishning moliyaviy asosini tashkil etish, pensiya ta'minoti organlari faoliyatini boshqarish, tegishli huquqiy bazani shakllantirishdan iborat. Davlat pensiya ta'minotining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohasi holatini harakterlaydigan muhim ko'rsatkich bo'lib u tartibga solish hamda rag'batlantirish tamoyillari asosida amal qilib boradi.

Bugungi kunda jahon e'tirof etayotgan taraqqiyotning "O'zbek modeli"ga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish, xududiy iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish va mahalliyashtirish dasturlari ijrosini ta'minlash orqali yangi ish o'rinlarini yaratish natijasida aholining turmush farovonligi oshirish yuzasidan davlat pensiya ta'minoti uchun moliyaviy resurslar manbalarini shakllantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada respublikamizda zamonaviy davlat ijtimoiy ta'minoti tizimini barpo etish yo'lida mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq puxta o'ylangan islohotlar olib borish mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan juda keskin o'zgarishlarni

yumshoqlik bilan amalga oshirish, ular o'z navbatida, davlat ijtimoiy ta'minoti tizimi oldida turgan birinchi darajali vazifalarni ham aniqlab berdi. Ularning orasida O'zbekistonning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish borasida jamlanma byudjet bo'g'inlaridan moliyaviy resurslarning yo'naltirilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida pensiya ta'minoti masalalarida ijobiy yutuqlarga erishilganiga qaramasdan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish mexanizmlarini zamonaviy moliyaviy siyosat kontseptsiyalari asosida takomillashtirib borishni, Pensiya jamg'armasi mablag'laridan oqilona foydalanish va uni maqsadli sarflashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy tadqiq etishni, musatqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini chuqur tadqiq etishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan o'zini amalda to'la oqlagan taraqqiyot modeliga hamohang ravishda mamlakat pensiya ta'minoti tizimining barqarorligini yanada yaxshilash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar bugungi kunning dorzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish, shu asosda pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi va mavzuning tanlanishiga asos bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti va ob'ekti. Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi. Malakaviy ishning ob'ekti sifatida O'zbekistonning pensiya ta'minoti tizimi, xususan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining amaliy faoliyati tanlangan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning bosh maqsadi mustaqil O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarning bajarilishiga asoslanadi:

- “pensiya” tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritish, pensiya ta'minoti tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;
- mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish, tavsiflash va tasniflash;
- O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining huquqiy-me'yoriy asoslarini o'rganib chiqish;
- mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini boshqarish amaliyotini tahlil qilish;
- pensiya ta'minoti tizimini mablag' bilan ta'minlash amaliyotini tadqiq etish;
- O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- pensiya tizimini isloh qilish bo'yicha jahon tajribasini o'rganish va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;
- mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishi yuzasidan ilmiy xulosalarni shakllantirish, pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati shundaki, ishda pensiya ta'minoti tizimining mazmuni, vazifalari, tashkiliy-huquqiy asoslari ochib berilgan, pensiya ta'minoti tizimini boshqarish va mablag' bilan ta'minlash amaliyoti batafsil bayon etilgan va shu asosda tanlangan mavzu bo'yicha yaxlit ilmiy ish shakllantirilgan. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda pensiya ta'minoti tizimi amaliy faoliyatini kompleks tahlil qilish asosida pensiya ta'minoti tizimini

samarali tashkil etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Malakaviy ish materiallaridan Oliy o'quv yurtlarida pensiyaga oid fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ish tarkibiy jihatdan kirish qismi, 8 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Malakaviy ish matni 96 betni tashkil qilib, unda 8 ta jadval va 9 rasm shakllantirilgan.

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning ob'ekti va predmeti, malakaviy ishning maqsadi va vazifalari, ishning nazariy-amaliy ahamiyati hamda ish tarkibining qisqacha tavsifi yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobida "pensiya" tushunchasining mazmun-mohiyati yoritilgan, pensiya ta'minoti tizimlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan, mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari o'rganilgan, tavsiflangan va tasniflangan, O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobida mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini boshqarish amaliyoti tahlil qilingan, pensiya ta'minoti tizimini mablag' bilan ta'minlash amaliyoti tadqiq etilgan hamda O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan.

Bitiruv malakaviy ishning uchinchi bobida pensiya tizimini isloh qilish bo'yicha jahon tajribasi o'rganilgan va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari asoslab berilgan hamda mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishi yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirilgan, pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha umumiy xulosalar shakllantirilgan hamda pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

1-BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Pensiya ta'minoti tizimlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari


Ma'lumki, kuchli ijtimoiy himoya Yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbek modeli"ning besh tamoyilidan biridir. Unda aholining turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda, fuqarolarni ijtimoiy himoyalash sohasidagi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish lozimligi qayd etilgan.

Bir vaqtning o'zida bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borish bilan birga, ijtimoiy himoyalash va kafolatlashning kuchli, tizimli va ta'sirchan mexanizmini yaratish hamda ijtimoiy barqarorlikka erishish asosiy maqsadlarimizdan biridir. Bunda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga iqtisodiy madad berish orqali fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni ta'minlash, sohadagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, pensionerlar va nogironlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyalash asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholini kafolatli himoya qilish eng muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vazifadir. Har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining sifat va miqdor ko'rsatkichlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining darajasidan dalolat beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida "Har bir inson ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun jamg'arma bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega"², ekanligi ko'rsatilgan. Bu aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi tomonidan ta'minlanadi. Buni quyidagi rasm asosida ifodalaymiz (1.1-rasm).

² Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.: "Adolat", 2004. – B. 35.



1.1-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi³

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning muhim shakli pensiya hisoblanadi. Pensiya lotincha “pensio” so’zidan olingan bo’lib, “to’lov” ma’nosini anglatadi. Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda ham “pensiya” tushunchasi “to’lov” ma’nosida ifodalanib, ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan talqin etiladi⁴.

Iqtisod fanlari doktori, professor T.Malikov fikricha: “pensiya – qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo’qotganda fuqarolarni

³ Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., prof. Q.X.Abdurahmonov tahriri ostida . – T.: “Iqtisodiyot”, 2013. – B. 351.


⁴ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 3-5.

moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to'lovi"⁵.

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda "pensiya – uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlar muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi"⁶, deb ta'riflangan. Shuningdek, "pensiya bu fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga etganida, nogironlik tufayli mehnat faoliyatini yo'qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va normalar asosida beriladigan har oylik to'lovlar, pensiya ta'minoti esa ushbu to'lovlarni maxsus pensiya jamg'armalari mablag'lari hisobidan fuqarolarga to'lanishining ta'minlanishidir", deb qayd etilgan.

Bizning fikrimizcha, pensiya – qonun tomonidan kafolatlangan va fuqarolarni keksaligida, qisman yoki to'liq mehnatga layoqatsizligi, boquvchisini yo'qotganda hamda mehnat faoliyatining muayyan sohasida ma'lum ish stajiga erishgan paytida ta'minlashga qaratilgan pullik to'lovdur. Qayd etish joizki, pensiya qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo'qotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to'lovidir.

Jahon amaliyoti tajribalaridan ma'lumki, pensiya ta'minoti tizimi uchta pensiya ta'minoti tizimiga ajratilgan. Buni 1.2-rasm orqali ko'rish mumkin.




1.2-rasm. Pensiya ta'minoti tizimi⁷

⁵ Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: "Noshir", 2012. – B. 676.

⁶ Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – B. 232.

⁷ Internet ma'lumotlari asosida. www.google.ru/modules/down/12369.

O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi qonunchilikka ko'ra ikki turga ajratiladi:



1.3-rasm. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi⁸

Pensiya ta'minotining majburiy va ixtiyoriy shakllari mavjud bo'lib, bu shakllar o'rtasidagi o'zaro munosabat turli mamlakatlar va ta'minotning rivojlanish bosqichlarida turlichadir.

Majburiy ijtimoiy ta'minot davlat maqsadli jamg'armalari orqali ta'minlanuvchi davlat ijtimoiy kafolatining alohida turi bo'lib, to'liq bo'lmagan o'zini-o'zi moliyalashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi. Davlat bu jamg'armalarning moliyaviy barqarorligi va majburiy ijtimoiy ta'minot dasturlarini amalga oshirishning kafolati sifatida maydonga chiqadi.

Majburiy pensiya ta'minotining ikki shakli mavjud: majburiy ijtimoiy ta'minot va majburiy professional ta'minot.

Umumiy majburiy ijtimoiy ta'minot mehnat shartnomasi bo'yicha ishlovchi shaxslarning barchasiga tatbiq etiladi. Majburiy professional ta'minot jarohat olish ehtimolligi yuqori bo'lgan ishlarda, xususan, xavfli va noqulay mehnat sharoitlarida ishlovchi kishilarga tatbiq etiladi. Majburiy professional

⁸ Talaba tomonidan mustaqil shakllantirildi.

ta'minotda ta'minot badallari darajasi majburiy umumiy ta'minotga qaraganda yuqori bo'ladi.

Ixtiyoriy ijtimoiy ta'minot jamoaviy birdamlik va o'zaro yordam tamoyili asosida shakllanadi. Majburiy ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatining etarli darajada bo'lmasligi va ta'minotlanuvchilar daromadining yuqoriligi ixtiyoriy ijtimoiy ta'minot jamg'armalarini majburiy ta'minotga qo'shimcha, to'ldiruvchi tarzida qarash imkonini beradi.

“Ijtimoiy ta'minot” tushunchasi aholini mehnat qilish qobiliyatini va daromadini yo'qotishi bilan bog'liq ijtimoiy xavf-xatarlarning turli shakllaridan ijtimoiy ta'minotlashning turli shakllarini qamrab oladi. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarni ixtiyoriy xususiy ta'minotlash turi hisoblanuvchi, ijtimoiy xavf-xatardan xususiy ta'minotlashning turli shakllari amal qiladi. U jismoniy va yuridik shaxslarning badallari, xususiy ta'minot kompaniyalari, pensiya jamg'armalari hisobidan amalga oshiriladi. Bu erda ta'minotlangan shaxsning individual badali miqdori bilan ta'minot dasturining uzviy o'zaro bog'liqligi, to'lov miqdorining ta'minotlangan shaxsning individual to'lov qobiliyatiga bog'liqligi, ijtimoiy xavf-xatarni individual baholashning bozor ekvivalentligi tamoyili amal qiladi. Ijtimoiy xavf-xatardan ta'minotlashning xususiy bozorida asosan tijorat ta'minot kompaniyalari faoliyat yuritadi.

XXI asrga kelib pensiya ta'minoti tizimini isloh etish dunyoning barcha mamlakatlari oldida turgan dolzarb va muhim vazifalardan biriga aylangan. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarini bajarishi uchun moliyaviy resurslarining etishmasligidir va bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqib, alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatlar uzoq muddatli istiqbolda pensiya tizimi barqarorligini yaxshilashga yo'naltirilgan bir qator muhim qadamlarni qo'ydilar. Pensiyaga chiqish yoshi oshirildi, to'lovlarni indeksatsiyalash qoidalari o'zgardi: ish haqiga bog'liqlik o'rniga iste'mol bahosi

qimmatini indeksi va ish haqi o'zgarishini (Vengriya, Polsha, Chexiya Respublikasi) yoki faqat iste'mol bahosi indeksi o'zgarishini hisobga olgan holda indeksatsiyalash qo'llanila boshlandi. Yuqori daromad darajasiga ega mamlakatlar o'zlarining majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarmoqdalar. Shu bilan birga, mamlakatlarda mehnatga haq to'lash jamg'armasidan to'lanadigan soliq miqdori ishlovchilarni rasmiy sohadan ketishlari uchun jiddiy sabab va rag'bat bo'lib xizmat qilmoqda.

Pensiya ta'minoti keksa yoshdagi kishilar o'rtasida kambag'allikni kamaytirishning ta'sirchan vositasi bo'lishi va hayoti mobaynida iste'molini barqarorlashtirishni kafolatlash mexanizmlaridan biri bo'lishi uchun kelgusi pensiya islohotlarini amalga oshirish zarurdir.

O'rta va yuqori daromadli o'tish davri mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimini isloh etish sohasidagi asosiy vazifa pensiya jamg'armasiga to'lanadigan badallar va pensiya to'lovlari miqdori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rnatish bilan bog'liqdir. Bu ishlovchilarning badallar to'lashdan manfaatdorligini saqlash, byudjet uchun og'irlikni kamaytirish maqsadida davlat tizimi miqdorini qisqartirish, ishlovchilar va ish beruvchilar uchun badal stavkasini pasaytirish, shuningdek, kelgusida jamg'arish tizimini amalga oshirish uchun asosni tayyorlash uchun zarurdir. Bunga birdamlik taqsimlash darajasini shartli-jamg'arish chizmasiga aylantirish yoki ish haqiga bog'langan, belgilangan to'lovli chizmani o'zgartirish va qisqartirish orqali erishiladi. O'tish iqtisodiyoti davlatlarida shartli-jamg'arish chizmasi namunasi Shved modelini qo'llagan Latviyada ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu shartli-jamg'arish tizimi individual hisobga asoslanadi. Pensiya jamg'armaiga ajratmalar "shartli jamg'ariladi", pensiya miqdori jamg'arilgan miqdorga, pensiyaga chiqqan davrdan boshlab o'rtacha kutilayotgan umrning davomiyligiga bo'linganiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, tizim umr davomiyligidan kelib chiqib, pensiya miqdoriga tuzatishlar kiritishga imkon berib, avtomatik boshqariladi. Bu tizim uzoq ish staji mavjudligini kengaytiradi, pensiya miqdorining ortishi chiziqli emas, aktuar

kasb etadi. Bu shuni anglatadiki, 62 yoki 63 yoshda qo'shimcha bir yil ishlash pensiyani 2 yoki 3 emas, balki 8-9%ga oshiradi.

Muayyan afzallikka ega bo'lishiga qaramasdan shartli-jamg'arish tizimi moliyaviy to'ldirishsiz taqsimlash tizimidir va bunga o'xshash tizimlar uchun xarakterli bo'lgan bir qator xavf-xatarlar bilan bog'liqdir. Mamlakatlar to'lovlarni badallarga uzviy bog'lab, amaldagi belgilangan to'lovlar mexanizmini o'zgartirishi mumkin. Bunga pensiya yoshini oshirish, nihoyatda yuqori qoplash koeffitsientini pasaytirish va butun umr uchun ish haqiga asoslangan pensiyani hisoblashni kiritish orqali erishiladi. Bu birinchi variant Vengriyada ko'p darajali tizimda qabul qilingan. Hozirda u Makedoniyada qo'llash uchun tayyorlanmoqda va Ruminiyada pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish dasturining tarkibiy qismi sifatida qo'llanilmoqda. Pensiya xarajatlarini kamaytirish maqsadida Vengriya, Polsha, Chexiya Respublikasi kabi mamlakatlar pensiya yoshini oshirdilar yoki Latviyadagi kabi pensiyaga chiqishning haqiqiy yoshida indeksatsiyalash tartibini o'zgartirdilar.

Yuqori o'rta va yuqori daromadli mamlakatlarda moliyaviy bozorning ma'muriy imkoniyatlari etarli darajada rivojlangan bo'lib, davlat pensiya jamg'armasi faoliyatini amalda tartibga solish va uning ustidan nazoratni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning fikrimizcha, yangi pensiya tizimiga o'tish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun zarur mablag' etarli bo'lgan sharoitlarda ko'p darajali tizimni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Tahlillarga ko'ra o'tish davri mamlakatlarining faqat bir qismigina mazkur shartlarga javob beradi. Mazkur islohotlar ishlovchilarga ikki manba – bir xil to'lovli davlat tizimi va majburiy individual badallar asosidagi to'lovlar hisobidan pensiya olish imkonini beradi. Pensiya individual hisoblarda jamg'ariladi va aktivlarning diversifikatsiyalashgan portfeliga investitsiyalanadi. Hisob-kitoblar xususiy boshqaruvda bo'ladi va davlat boshqaruviga nisbatan samaraliroq bo'ladi, bu borada davlat esa hisob-kitoblar ustidan nazorat qilish va tartibga solishni amalga oshiradi.

Hozirgi vaqtda ko'p darajali pensiya tizimi Vengriya va Polshada joriy etilgan. Ruminiya, Xorvatiya, Latviya, Sloveniya va Makedoniya kabi mamlakatlar yaqin kelajakda ikkinchi darajali pensiya tizimini kiritishni rejalashtirilmoqdalar.

Hozirgi Qozog'istonda ko'p darajali pensiya tizimi amalga oshirilmoqda. Qozog'istondagi islohotlarning o'ziga xosligi shundaki, pensiya ta'minotining to'la xususiylashtirilgan tizimi amal qilmoqda. Mamlakatda davlat zimmasiga mehnat qobiliyatini yo'qotganlik holatlarida yoki keksalikdagi kambag'allik risklariga qarshi kurashish vazifasi yuklatilgan. Bu ma'noda Qozog'istondagi islohotlar Chili, Salvador, Perudagi islohotlarni eslatadi. 1997 yilning avgustida Qozog'iston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash vazirligi qoshida Milliy pensiya agentligi tashkil etildi. Bu agentlik zimmasiga pensiya jamg'armalari faoliyatini tartibga solish va litsenziyalashni amalga oshirish vazifasi yuklatildi. Keyinchalik pensiya to'lovlari bo'yicha Davlat markazi tashkil etildi va u majburiy pensiya ajratmalari hamda pensiya to'lovlari ustidan nazoratni amalga oshira boshladi.

Mamlakatlarning ko'p darajali pensiya tizimiga o'tishiga qarab xususiy pensiya jamg'armalarini boshqarishning xuquqiy asoslarini ishlab chiqish, hisob-kitoblarni olib borish, badallarni yig'ish, xususan, pensiya jamg'armalari faoliyati ustidan nazorat yuritish va tartibga solish bo'yicha institutsional salohiyatni shakllantirish kabi muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish organlari hisobida turgan pensionerlar soni umumiy aholining to'rtidan birini tashkil etmoqda. Pensionerlar soni Qirg'iziston, Rossiya va O'zbekistondan tashqari barcha mamlakatlarda kamayganligi kuzatilmoqda.

MDH davlatlari bo'yicha o'rtacha 75 foiz pensionerlarga yosh bo'yicha mehnat pensiyasi, 13 foiziga nogironlik bo'yicha, 7 foiziga boquvchisini yo'qotganligi bo'yicha pensiya tayinlangan. Shuningdek, har yili taxminan 5 foiz pensionerlar fuqarolarga pensiya yoshiga etgandan keyin yoki zaruriy

mehnat stajiga ega bo'lmagan sharoitda belgilangan nogironlik uchun beriladigan sotsial pensiya oladilar. Mazkur pensiyalarning miqdori ko'pgina holatlarda yosh bo'yicha mehnat pensiyasining eng kam miqdoridan 18-32% oz bo'ladi.

Hamdo'stlikning barcha mamlakatlarida mehnat pensiyalarini moliyalashtirish taqsimlash asosida korxonalarining ishlovchilari soni va ish haqi jamg'armasidan kelib chiqqan holdagi sug'urta badallari hisobidan amalga oshiriladigan pensiya ta'minoti tizimi amal qilmoqda. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari pensiya tizimlarining holati, rivojlanishi va isloh etish xususiyatlari asosida ularni:

- birdamlik tizimi amal qilayotgan mamlakatlar;
- jamg'arish tizimiga o'tgan mamlakatlar;
- ko'p darajali aralash tizimni qo'llovchi mamlakatlarga ajratish mumkin.

Pensiya ta'minotining birdamlik tizimi amal qilayotgan mamlakatlarda quyidagi muammolar mavjud:

– ish o'rinlarining qisqarishi, ochiq va yashirin ishsizlik miqdorining ortishi, badallar to'lashdan bo'yin tovlashlar tufayli bog'liqlik koeffitsientining pasayishi;

– badallarning yuqori darajasining mahsulot va xizmatlarning tannarxi va raqobatbardoshligi darajasiga ta'siri;

– badallarning ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasida nomutanosib taqsimlanganligi.

Jamg'arish tizimiga ega mamlakatlarda mavjud muammolar: ish o'rinlarining qisqarishi, ochiq va yashirin ishsizlik zaruriy mablag'larni pensiya jamg'armasida jamg'arish imkonini bermaydi; kapitallar va qimmatli qog'ozlar bozorining yo'qligi yoki etarli darajada rivojlanmaganligi uchun erkin mablag'lardan foydalanish samaradorligining pastligi; yuqori inflyatsiya darajasi; davlatning amaldagi pensiya to'lovlarini ta'minlashga katta miqdordagi moliyaviy xarajatlarni sarflashi, xususan, Qozog'iston amaldagi pensiya to'lovlarini to'lash uchun har yili 1 mlrd. AQSh dollari sarflamoqda.

Aralash tizimli mamlakatlardagi muammolar: badallarning joriy pensiya xarajatlarini qoplash uchun etarli miqdorda emasligi.

Hozirgi davrga kelib, jahondagi mamlakatlarda 40 yildan ko'proq vaqt mobaynida amal qilayotgan pensiya ta'minoti o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Boshqacha ifodalaganda, aksariyat ishlovchilar pensiya rejalari bilan qamrab olingan va to'la miqdorda nafaqa olish huquqiga ega bo'ldilar. Jahonda aholi keksayib borishi tufayli pensiya ta'minoti tizimida badallar to'lovchi shaxslar ulushi kamaymoqda. Ko'pgina pensiya sxemalari uchun joriy to'lovlar bo'yicha kamomadlik xosdir va hisob-kitoblarga ko'ra ayrim mamlakatlarda pensiya ta'minotining jamg'arilib borgan yashirin qarzdorligi yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 100 dan 250%gacha qismini tashkil etadi. Jahonda vujudga kelgan ushbu tendentsiya pensiya ta'minotida moliyaviy mustaqillik va samaradorlik to'g'risidagi masalani dolzarb muammoga aylantirdi. Birdamlik pensiya tizimi o'z boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz jiddiy makroiqtisodiy va tarkibiy xavf-xatarlarni keltirib chiqardi. Aholining keksayishi iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy oqibatlar bilan bir qatorda siyosiy jihatlarga ham egadir. Zero, pensionerlar elektoratning muhim qismini tashkil etib, aholining qariyalardan iborat qatlamini siyosiy kuchlar nisbatidagi salmog'i ortmoqda. Shunday qilib, 1980-yillardan boshlab jahon pensiya tizimida islohotlarni amalga oshirish ob'ektiv zaruratga aylandi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda amal qilayotgan davlat pensiya dasturi birdamlik tizimi asosida shakllangan. Birdamlik pensiya tizimi –ishlovchilarning ish haqi jamg'armasidan pensiya jamg'armasiga soliq to'lash va pensiya jamg'armasidan pensionerlarga nafaqalar to'lashga asoslangan. Individdning pensiya nafaqasi miqdori ish haqi va mehnat stajiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, ish haqi va pensiya miqdori uzviy bog'liq emas, boshqacha so'z bilan aytganda, ushbu tizim badallar miqdori bilan bog'lanmagan nafaqalarni nazarda tutadi.

Birdamlik pensiya tizimi davlat tizimi xarakteriga ega bo'lganligi uchun, uni korxonada va tarmoq darajasida tashkil etish imkoni yo'q. Ko'pgina

rivojlangan davlatlarda pensionerlarning normal yashashi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi G'arb demokratiyasining sotsial sohadagi asosiy yutuqlaridan biri sifatida qaraladi.

Birdamlik tizimining asosiy xususiyati – unda kuchli qayta taqsimlash elementlari mavjud bo'lgan holda pensionerlar o'rtasidagi kambag'allik va tabaqalashuv darajasini sezilarli qisqartirdi. Birdamlik tizimi amal qilishining dastlabki davrlarida nafaqalarning past miqdori nisbatan kam sonli kishilarni to'lov bilan ta'minlash uchun etarli bo'lgan, ammo tizimning rivojlanib borishi bilan ish haqi jamg'armasidan to'lanadigan soliqlarni ortib borishi tendentsiyasi vujudga keldi. Birdamlik pensiya tizimini amal qilishi tenglashtirish elementlari, ijtimoiy qaramlikning ortishi, investitsion xohishning susayishi kabi qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Masalan, AQShda aholining keksayishi va pensiya ta'minoti muammolari ustida izlanish olib borgan amerikalik tadqiqotchi S.Pelerson AQShda shaxsiy jamg'armalarning YaIMdagi ulushi 1960-1970 yillardagi 8% dan 1990-yillarda 5% gacha pasayganligiga e'tiborni qaratadi. Bugungi kunda AQShda 1946-1964 yillarda tug'ilgan soliq to'lovchilar keksa aholining nisbatan uncha katta bo'lmagan qismini tashkil qiladi. Aholining mazkur qismi jamg'arishga kam moyilligi bilan ajralib turadi. Taqsimlovchi tizimni tahlil etish, davlat pensiya tizimining monopol holati pensionerlarga tanlov imkoniyatini bermagan holda pensiya miqdori va to'lash shartlari borasida harakat qilish imkonini beradi. Jamg'aruvchi pensiya tizimida pensiya badallari moliyaviy aktivlarga ega bo'lish uchun foydalaniladi. Ishlovchilarni keksalikda pensiyasini moliyalashtirish uchun mo'ljallangan bunday aktivlarning umumiy miqdori qo'yilgan kapitaldan dividend yoki aktiv moliyaviy mablag'lardan foiz shaklidagi daromad olish ikonini beradi va har yili tushadigan qo'shimcha pensiya badallari investitsiya maqsadida foydalanganligi tufayli vaqt o'tishi bilan ortib boradi. Ishlovchi pensiya yoshiga etganda, jamg'arilgan aktivlar zahirasi doimiy pensiya to'lovlarini to'lash uchun foydalaniladi. Jamg'aruvchi pensiya tizimi sharoitida pensiya badallari stavkalarini hisoblash birdamlik tizimidagiga qaraganda murakkab holatni

keltirib chiqaradi. Badallar stavkasi aktivlarning qaytish me'yorlari, ularni jamg'arish davomiyligi va davriga, ya'ni jismoniy shaxsning ishlash davri va davomiyligiga, pensiyaga chiqqandan keyingi umr ko'rish davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Turli mamlakatlarda shaxsiy ixtiyoriy pensiya rejalari amal qiladi. Ular to'la moliyalashtirish asosida faoliyat ko'rsatadi va aniq belgilangan badallarni nazarda tutadi. Ishlovchilar va pensionerlar o'zlarining jamg'armalari bo'yicha investitsion risklarni o'z zimmalariga olishadi.

1.2. Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

O'zbekiston tanlagan islohot yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti bozor mexanizmining samarali ishlashini, aholi turmushining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi, kuchli ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Barcha islohotlarning – iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi – insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iboratdir"⁹. Ushbu vazifaning ijobiy hal etilishi, aynan, ijtimoiy sohalar taraqqiyotiga bog'liqdir. Bu borada pensiya tizimi muhim o'rin egallaydi.


Jahon amaliyotida pensiya tizimlarining hamjihat mas'uliyat tizimi (hozirda ishlayotgan avlod oldingi avlodning pensiyalarini mablag' bilan ta'minlash uchun badallar to'laydi) va jamg'arma tizimi (har bir ishlovchi xodim mehnat faoliyati davomida o'zining qarilik davrini ta'minlash uchun maxsus pensiya jamg'armalarida mablag' yig'ib boradi) mavjud. Shuningdek, xususiy pensiya tizimiga asoslangan korporativ pensiya ta'minoti amal qiladi.

O'zbekistonda pensiya ta'minotining hamjihat mas'uliyat tizimi qo'llaniladi. 2004 yil 2 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

⁹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 1995. – B. 119.

2005 yil 1 yanvardan ishlayotgan fuqarolar to'laydigan daromad solig'ining 1% miqdoridagi ajratmalardan iborat fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari O'zbekiston Respublikasi Xalq banki muassasalarida egasi yozilgan shaxsiy pensiya hisobvaraqlariga o'tkazilishi tartibi belgilandi. Fuqarolar o'zlarining bu pensiya jamg'armasidan davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan muddatda foydalana boshlaydilar.

O'zbekistonda hozirgi pensiya tizimining shakllanishini besh bosqichga bo'lish mumkin:



1.4-rasm. O'zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari¹⁰

1. *Birinchi bosqich* (1918-1956 yillar) davrida mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lganlarga, qariyalarga va ko'p yillik xizmatlari uchun kabi pensiya turlari joriy etildi. Ayollar va erkaklarga yoshiga qarab pensiya belgilash ham o'sha davrda qaror topdi. Sho'ro hokimiyati davrida,

¹⁰ Talaba tomonidan mustaqil shakllantirildi.

asosan fuqarolar urushida nogiron bo'lganlar va boquvchisini yo'qotgan oilalar uchun pensiya tayinlangan. 1928 yildan keksalik va ko'p yillik xizmatlari uchun pensiyalar, dastlab sanoatning alohida ishchilari, keyinchalik esa barcha ishchilarga berila boshladi. 1937 yilga kelib bu pensiya xizmatchilar uchun ham joriy etildi. Pensiya ta'minotida yagona tartib yo'q bo'lib, pensiya tarmoqlar tamoyili bo'yicha tayinlangan.

2. *Ikkinchi bosqich* (1956-1990 yillar) davrida davlat pensiya ta'minoti to'g'risida ilk bor yagona qonun ("Davlat pensiyalari to'g'risida") qabul qilindi (1956 yil). Bu qonunga asosan barcha tarmoq ishchi-xizmatchilari uchun (kolxozchilardan tashqari) yagona pensiya tartibi belgilandi. 1964 yilda "Kolxoz a'zolariga pensiya tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilingach, barcha kolxozchilar uchun yagona pensiya ta'minoti joriy bo'ldi. Mehnatga vaqtincha qobiliyatsizligi uchun nafaqalar, ayollarga homiladorlik va tug'ish uchun beriladigan nafaqalarning miqdori ko'paytirildi. 1965 yilga kelib, aholining barcha qatlamlari pensiya ta'minoti bilan qamrab olindi.

3. *Uchinchi bosqich* (1990-1994 yillar) mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlari tartibiga o'ta boshlagach, pensiya ta'minotida ham islohotlar o'tkazilishi bilan boshlandi. Bu bosqichda ilk bor pensiya jamg'armasi, ijtimoiy pensiya, daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo bo'ldi. 1990 yilda o'sha davrdagi pensiya ta'minotining huquqiy asosini sobiq Ittifoq fuqarolarining pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun tashkil qildi. Qonunga ko'ra yoshga doir pensiyalarning tayanch qismi o'rtacha ish haqining 50% dan 55% ga ko'tarildi; yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab qilinadigan mehnat stajidan ortiq bo'lgan har bir to'liq ish yili uchun pensiyaning o'rtacha miqdorini 1% ga oshirish; ish stajiga oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qish muddatlari, sug'urta badallari to'langanda yakka tartibdagi mehnat faoliyati, onalarning bolalarni go'daklik yoshida parvarishlash davrlari (har bir bola 3 yoshga to'lguncha – jami 6 yil doirasida) va boshqa ish stajiga qo'shiladigan bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 14 yanvardagi 9-son qaroriga asosan Pensiya fondining O'zbekiston jumhuriyat bo'limi tashkil etilgan. Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy sug'urta mablag'larining to'g'ri va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashining 1993 yil 4 avgustdagi 391-son qaroriga muvofiq, sobiq Ittifoq Pensiya fondining O'zbekiston Respublika bo'limi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilgan. Unga O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tizimidan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha, farzand tug'ilganda, dafn etishga beriladigan nafaqalarni to'lashga yo'naltiriladigan davlat ijtimoiy sug'urta mablag'lari berilgan.

4. *To'rtinchi bosqich* (1994 yildan hozirgi davrga qadar) – O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonuni (1993 yil 3 sentyabr) qabul qilinib, 1994 yildan amalda joriy etilishi bilan boshlandi. Ushbu qonunga ko'ra pensiyalar miqdori mehnat staji va o'rtacha ish haqiga yanada uzviy bog'landi. Pensiya miqdori: pensiyaning tanyach miqdori; mehnat staji uchun pensiyaning oshirilgan qismi; pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tashkil topadi. Pensiyalarning 3 turi mavjud: *yoshga doir pensiya* (agar pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab uch oy ichida uni so'rab murojaat etilgan bo'lsa, pensiya yoshiga to'lgan kundan e'tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya umrbod tayinlanadi); *nogironlik pensiyasi* (agar nogironlik belgilangan kundan boshlab uch oy ichida pensiya so'rab murojaat etilgan bo'lsa, tibbiy mehnat ekspert komissiyasi (TMEK) nogironlikni belgilagan kundan e'tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya butun nogironlik davri uchun tayinlanadi. 60 yoshdan oshgan erkak va 55 yoshdan oshgan ayol nogironlarga – nogironlik pensiyalari umrbod tayinlanadi. Ana shu nogironlarni qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish faqat ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi); *boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi* (pensiya olish huquqi paydo

bo'lgan kundan boshlab, lekin pensiya tayinlanishi uchun murojaat etishdan oldingi 6 oydan oshmagan muddatdan e'tiboran tayinlanadi. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi). Yoshga doir pensiya, o'z navbatida, 2 xil bo'ladi: umumiy asoslarda tayinlanadigan va imtiyozli asoslarda tayinlanadigan pensiya. Umumiy asoslarda tayinlanadigan yoshga doir pensiya – erkaklar 60 yoshga to'lganda va kamida 25 yil mehnat stajiga ega bo'lganda, ayollar 55 yoshga to'lganda va kamida 20 yillik mehnat stajiga ega bo'lganda tayinlanadi. Bolalarni tarbiyalash uchun shart-sharoit yaratish hamda ayollarning o'z mehnatidan manfaatdorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi (1999 yil 14 aprel) qonuniga asosan, kamida 20 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan ayollar 54 yoshda pensiyaga chiqib, to'liq pensiya olishlari mumkin. Bu qonun 1999 yil 1 iyuldan kuchga kirgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250-sonli "Imtiyozli sharoitlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1-, 2- va 3-ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli asoslarda tayinlanadigan yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Macalan, ayrim toifa fuqarolar yoshidan qat'i nazar, yoshga doir pensiyaga chiqish yoshi 10 yilga, boshqalari uchun pensiya yoshi, talab etiladigan mehnat staji 5 yilga qisqartirilgan, ba'zi guruh shaxslarga yanada imtiyozliroq shartlar belgilangan.

5. *Beshinchi bosqich* (2005 – yildan hozirgi davrga qadar) – fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti amal qila boshladi. 2005 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari, jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi (badal kirituvchi), jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i kabi tushunchalar qo'llanila boshlandi.

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi 444-son qaroriga muvofiq, 2001 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan to'lanadigan nafaqalarni o'z vaqtida hisoblash va to'lash funksiyalari yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2004 yil 21 oktyabrdagi 490-son qaroriga asosan, 2005 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi PF-4161-son Farmoniga muvofiq, 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari fuqarolarning pensiya ta'minoti

va tibbiy-mehnat ekspertizasi masalalarining butun kompleksi uchun mas'ul bo'lgan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimiga kiruvchi funktsiyalar hamda tegishli tuzilmalarni topshirish hisobiga tashkil etilgan.

Ta'kidlash joizki, umumdavlat moliyasi tarkibidagi bo'g'inlar ichida davlat byudjetidan keyin hajmi va iste'molchilarni qamrab olish ko'lami hamda ijtimoiy ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan markazlashgan jamg'armalardan biri Pensiya jamg'armasi bo'lib, dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Pensiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi 459-sonli qaroriga muvofiq asos solingan. Har bir yangi tashkil etilgan markazlashgan jamg'arma oldiga muayyan maqsad qo'yilgani bois, ushbu jamg'arma oldiga ham zarur maqsad qo'yildi. Jumladan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining bosh maqsadi – davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta'minoti tizimida boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, daromadlarga mo'ljallangan majburiy badal, yig'im va ajratmalarni to'liq yig'ilishini ta'minlash, shuningdek, aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish uchun moliyalashtirish chora-tadbirlarini o'z vaqtida va to'liqligicha ta'minlashga erishish hisoblanadi.

Qayd etish joizki, jahon amaliyotida pensiya tizimlarining hamjihat mas'uliyat tizimi (hozirgi ishlayotgan avlod oldingi avlodning pensiyalarini mablag' bilan ta'minlash uchun badallar to'laydi) va jamg'arma tizimi (har bir ishlovchi xodim mehnat faoliyati davomida o'zining qarilik davrini ta'minlash uchun maxsus pensiya jamg'armalarida mablag' yig'ib boradi) mavjud.

Hozirgi kunda pensiya amaliyotida "Pensiya" dasturiy majmui samarali elektron hamkorlikni ta'minlamoqda. O'zbekiston Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasida pensiya va nafaqalarni hisobga olish, tayinlash hamda to'lashni tashkil etish, zamonaviy innovatsiya dasturiy mahsulotlaridan foydalanish orqali jamg'armaning barcha tarkibiy bo'linmalari o'rtasida samarali elektron hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgan. "Pensiya" dasturiy majmui esa ana shulardan

biridir. U ishonchli himoya qilingan va markazlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, foydalanuvchilarni ishonchli, to'liq hamda dolzarb axborot bilan o'z vaqtida ta'minlash imkonini beradigan avtomatlashtirilgan axborot tizimidir.

“Pensiya” dasturiy majmui pensiya va nafaqalarni tayinlash, ularning hajmini hisoblash, pensiya hamda nafaqalarni qonunchilikka asosan qayta hisob-kitob qilish va hisobga olish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan. Mazkur tizim jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarida pensionerlarni ro'yxatga olish, ular haqidagi axborotni saqlash, qayta ishlash va berish, qayta ishlanayotgan axborotning tezkorligi va ishonchliligini oshirish uchun pensionerlar to'g'risida markazlashtirilgan yagona ma'lumotlar bazasini yaratishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, dasturiy mahsulot to'lov hujjatlarini (pensiya va nafaqalar to'lash uchun qaydnomalar) shakllantirish, elektron to'lov hujjatlarini to'lovlar uchun mas'ul tegishli tashkilotlarga jo'natish imkonini beradi. “Pensiya” dasturiy majmuidan foydalanish hisobdorlik shakllarini jamg'arma bo'linmalari darajasida olish, fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining faoliyat ko'rsatkichlarini sifat jihatidan yaxshilash, pensiya va nafaqalarni turlari bo'yicha moliyalashtirishni hisobga olish hamda monitoring qilishga yordam beradi. Bugungi kunda dasturiy majmui O'zbekistonning barcha hududlarida ishga tushirildi. Ayni paytda barcha pensionerlar va nafaqa oluvchilar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni shakllantirilgan yagona elektron axborot bazasini o'z ichiga olgan, pensiyalarni tayinlash hamda to'lash joriy etilgan dasturiy majmua orqali amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, ushbu dastur yordamida xodimlar faoliyatidagi xatolarni tez aniqlash, pensiyalarni tayinlash va to'lashda yomon niyatli odamlar xatti-harakatining oldini olish mumkin. Bir vaqtning o'zida, dasturda davlat pensiya va nafaqalarini tayinlash, qayta hisob-kitob qilish va to'lash bo'yicha daromadlar hamda xarajatlarning kunlik balansini tuzish, jamg'arma mablag'larining sarflanishini barcha joylarda tezkor qayd etish, markazlashtirilgan ma'muriy nazoratni amalga oshirish imkoni ham bor.

“Pensiya” dasturiy majmui orqali pensionerlarga interfaol xizmatlarni ko’rsatish kengaytirildi. Xususan, ular hisoblangan pensiya hajmi haqidagi ko’chirmani elektron pochta, mobil telefonda qisqa xabar orqali olishlari mumkin. Bundan tashqari, mobil telefonga pensiyalar oshgani haqidagi ma’lumotlar ham kelib tushadi.

Xullas, O’zbekistonda pensiya tizimidagi islohotlar fuqarolarga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirmoqda hamda ularning hayoti farovonligini ta’minlamoqda.

1.3. O’zbekistonda pensiya ta’minoti tizimining huquqiy-me’yoriy asoslari

1992 yil 8 dekabrda O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o’n birinchi sessiyasi o’n ikkinchi chaqirig’ida qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida: “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo’qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo’lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo’yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo’lishi mumkin emas”¹¹, deb ko’rsatilgan.

“Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturiga muvofiq hamda 100 yoshga to’lgan va undan oshgan shaxslarga munosib e’tibor qaratish, shuningdek, pensionerlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo’llab- quvvatlashni kuchaytirish maqsadida 2015 yil 14 aprelda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksalarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo’llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-4715-son Farmoniga ko’ra yoshi 100 ga to’lgan va undan oshgan fuqarolar pensiyasiga 2015 yilning 1 mayidan boshlab, har oyda eng kam ish haqining 100 foizi

¹¹ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992 yil 8 dekabr. 39-modda.

miqdorida qo'shimcha to'lov to'lash belgilandi. Bunda 100 yoshga to'lgan va undan oshgan fuqarolar pensiyasiga har oyda to'lanadigan qo'shimcha to'lov O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Yoshi 75 ga to'lgan va undan oshgan fuqarolardan ularga tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblanishi, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan imtiyozlarning qo'llanilishi to'g'riligini tekshirish natijalariga ko'ra aniqlangan ortiqcha to'langan pensiya va nafaqalar miqdori 2015 yil davomida hisobdan chiqarildi. Shuningdek, uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha har oyda kompensatsiya pul to'lovlari beriladigan shaxslarning imtiyozli toifalari ro'yxati aniqlandi.

9-may umumxalq bayrami – Xotira va qadrlash kuni o'tkazilishi, shuningdek, 1941-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan G'alabaning 69-yilligi nishonlanishi munosabati bilan hamda urush qatnashchilari va nogironlarini moddiy rag'batlantirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 18 apreldagi "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi PF-4616-sonli Farmoniga binoan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga 600000 so'm miqdorida bir martalik pul mukofoti belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 252-sonli Qarori asosida "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi, "Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqining yakka tartibdagi koeffitsientlarini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomlar tasdiqlandi va 2011 yil 1 oktyabrdan boshlab amalga kiritildi. Unda fuqarolarga pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etish, ish stajini hisoblab chiqish va tasdiqlash, pensiyani hisoblash, tayinlash, qayta hisoblab chiqish, to'lash, pensiyalarni bir turidan boshqa turiga o'tkazish, nafaqaga oid hujjatlar yig'ma jildini hisobga olish va saqlash tartibi

belgilangan. Demak, yangi tartibga asosan tijorat banki orqali pensiya oladigan kishi har 6 oyda Pensiya jamg'armasi bo'limiga kelish yo'li bilan o'zining pensiya summasini olish huquqini tasdiqlashi zarur. Agarda pensioner huquqlarini yuqorida aytilgani kabi tasdiqlamasa, nafaqani to'lash fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakillari va qo'shnilar ishtirokida Pensiya jamg'armasi bo'limi xodimlari tomonidan tuzilgan dalolatnoma asosida to'xtatib turiladi. Dalolatnomada pensiyani to'lashga va uning miqdori asoslanganligiga ta'sir etuvchi holat ko'rsatiladi. Shuningdek, qarorda pensiyani ishonchnomalar orqali oluvchilar uchun ham ko'rsatma bor. Ya'ni, ishonchnoma bergan shaxs Pensiya jamg'armasi bo'limiga bir yilda kamida bir marta kelib, tayinlangan pensiyaga bo'lgan o'z huquqini tasdiqlashi kerakligi ko'rsatilgan. Ishonchli vakil esa pensiya to'lashga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, o'ziga ma'lum barcha holatlar to'g'risida jamg'arma bo'limiga xabar berishi shart. Ishonchnoma pochtaning tegishli tarkibiy bo'linmasida saqlanishi va ushbu bo'linmaning asosiy muhri va rahbarning imzosi bilan tasdiqlangach, o'n kun muddat ichida Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuborilishi zarur.


Pensiya ta'minoti uchun zarur bo'ladigan hujjatlar xususida ham qo'shimchalar bor, jumladan, hujjatlar bilan ishlashda asosan pensiya ta'minotini tashkillashtirishda ishtirok etayotgan tomonlarning mas'uliyati va javobgarligiga ko'proq e'tibor qaratilgan. Jumladan, pensiya olish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, taqdim etilgan hujjatlarning (ish staji, amaldagi ish haqi va shu kabi) ishonchliligi va asoslanganligi uchun ushbu hujjatlarni bergan tashkilotning mansabdor shaxsi hamda pensioner qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob berishi keltirib o'tilgan. Shu bilan birga, ishonchsiz ma'lumotlar, nafaqaga bo'lgan huquqlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelmaydigan holatlar aniqlanganda, ish beruvchi yoki arxiv tomonidan berilgan yuqorida keltirilgan hujjatlar soxtalashtirilganda davlatga etkazilgan zarar summasini undirish uchun javobgarlik mansabdor shaxslarga yuklatiladi. Pensioner tomonidan sodir etilgan suiste'molliklar (ataylab noto'g'ri ma'lumotlar bilan hujjatlar taqdim etish,

boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlangan oila a'zolari tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etmaslik) natijasida pensiyalar summasi ortiqcha to'langan taqdirda, davlatga etkazilgan zararni to'lash majburiyati pensionerga yuklatiladi. Xullas, ushbu qarorning qabul qilinishi nafaqat pensiya ta'minotini tashkil etishda ishtirokchi bo'lgan Pensiya jamg'armasi organlari va tegishli tashkilotlarga, balki nafaqa olish huquqiga ega bo'ladigan barcha fuqarolarga xizmat qilishi tabiiy.

Pensiya ta'minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1252-sonli Qaroriga ko'ra 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi; xodimlarning umumiy cheklangan soni 34 nafar, shu jumladan, boshqaruv xodimlari soni 24 nafar bo'lgan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining tuzilmasi; Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalarining va tuman (shahar) bo'limlarining namunaviy tuzilmalari hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Kuzatuvchilar kengashi tarkibi tasdiqlandi va amalga kiritildi.

1993 yil 3 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ushbu qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonunga ko’ra davlat pensiyalarining quyidagi turlari mavjud:



1.5-rasm. Davlat pensiyalarining turlari¹²

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta’minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasidan o’z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to’liq hajmda to’lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta’minotiga yo’naltiriladigan mablag’lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to’lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to’lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tegishli hududiy bo’linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda¹³. Bu esa, o’z navbatida, Pensiya jamg’armasi zimmasiga qo’shimcha ravishda quyidagi asosiy vazifalar va funktsiyalarni yukladi:

– fuqarolarning davlat pensiya ta’minotini tashkil qilish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to’lovlarni tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to’lovlarning miqdorlari qayta hisoblab chiqilishini ta’minlash;

– pensiyalar hamda boshqa to’lovlarni to’liq hajmda moliyalashtirish va to’lanishini tashkil qilish, ular bo’yicha hisob va hisobotni yuritish;

¹² O’zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonuni. 2-modda.

¹³ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrdagi “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-4161-sonli Farmoni.

– pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asosda doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta’minotiga yo’naltiriladigan mablag’lardan qat’ian maqsadli foydalanilishini ta’minlash;

– mehnat mayibligi yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik bo’yicha tayinlangan pensiyalarni to’lashga mablag’larni da’volar bo’yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;

– tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmati faoliyatini tashkil etish.

Shuni ham ta’kidlash joizki, respublika hududidan tashqarida yashab turgan O’zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta’minlash O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi. O’zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslar O’zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar. Ish stajiga ega bo’lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta’minlanish tartibi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi¹⁴.

2015 yil 1 yanvardan boshlab “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2014 yil 4 dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2015 yilga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari qabul qilinishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining 379-sonli qonuni qabul qilindi.

“Keksalarni e’zozlash yili”da “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga quyidagi o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi:

¹⁴ O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Pensiya tayinlash uchun zarur bo’lgan ish stajiga ega bo’lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to’lash tartibi to’g’risida”gi Nizom.

– sudyalari va prokuratura organlari xodimlarining pensiya taʼmini boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

– Oʻzbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro Hukumatlararo tashkilotlarning kvota oʻrinlariga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning hamda ularning turmush oʻrtoqlarining chet elda boʻlgan vaqti ish stajiga qoʻshib hisoblanadi;

– dafn marosimi uchun nafaqa miqdori eng kam oylik ish haqining 4 barobari miqdorida toʻlanadi;

– hisoblangan, ammo pensioner tomonidan oʻz vaqtida olinmagan pensiyalarni oʻtgan vaqt uchun toʻlash muddatlari 3 yildan 12 oyga qisqartiriladi;

– shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya taʼmini toʻgʻrisida”gi Qonunining 26, 28, 29, 30, 31 va 38-moddalarida belgilangan normalar boshqa qonun hujjatlarida belgilangan normalarga moslashtirildi. Bunda mazkur oʻzgartirishlar pensiya miqdorlarining oshishi yoki kamayishini qoʻlda tutmagan.

Umuman olganda, Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya taʼmini toʻgʻrisida”gi Qonuniga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar fuqarolarning davlat pensiya taʼmini tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

Oʻzbekiston Respublikasining 2004 yil 2 dekabrda “Fuqarolarning jamgʻarib boriladigan pensiya taʼmini toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilindi. Unga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar jamgʻarib boriladigan pensiya taʼmini olish huquqiga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 iyundagi “Jamgʻarib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 110-sonli qarori 3-bandi bilan davlat soliq organlari zimmasiga yuridik shaxslar tomonidan majburiy

jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblanishi hamda fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan nazorat o'rnatish, fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallar o'z vaqtida va to'liq o'tkazilmaganligi uchun aybdor shaxslarga nisbatan soliqqa oid amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ta'sir choralari qo'llash vazifalari yuklatildi.

Ish beruvchilarning, shuningdek mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiydir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek, boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Qonunchilikda jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'larini, jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag'larini, jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi (badal kirituvchi) jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxsni; jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlashni, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i – fuqaroning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobvarag'i bo'lib, badal kirituvchilarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi mablag'larga hisoblab qo'shilgan foizlar ana shu hisobvaraqqa kelib tushadi hamda unda hisobga olishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida keltirilgan qarorlarini to'laqonli amalga oshirish maqsadida 2012 yil 12 aprelda O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2012-2016 yillarga mo'ljallangan davlat pensiya tizimini barqaror rivojlantirish, qulay ijtimoiy muhitni shakllantirish orqali fuqarolarni davlat tomonidan kafolatlangan pensiyalar bilan ta'minlash shart-sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar kompleks rejasida quyidagilar ko'zda tutilgan: davlat pensiya ta'minoti tizimidagi qonunchilik bazasini va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish; pensiya tizimini takomillashtirish va davlat organlari hamda ularning joylardagi boshqarmalari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish bo'yicha choralar; Pensiya jamg'armasi daromadlarini mustahkamlash bo'yicha choralar; pensiya va ijtimoiy nafaqa to'lovlarini o'z vaqtida ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar; Pensiya jamg'armasi tarkibiy bo'linmalarining moddiy-texnik bazasining sifatini va jihozlanganlik darajasini yaxshilash bo'yicha choralar; davlat pensiya tizimidagi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

2-BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING AMALIY FAOLIYATI TAHLILI

2.1. Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini boshqarish amaliyoti tahlili

Boshqarish (iqtisodiyotda) – xo'jalik ob'ektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo'naltirish jarayoni; sub'ektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy ob'ektlarga ongli maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo'naltirish va ko'zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi. Boshqarish usullari boshqariladigan ob'ektning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq, lekin hamisha boshqaruv qarori tatbiq etiladigan davrni ajratib olishni nazarda tutadi. Boshqarishning iqtisodiy, ma'muriy va ijtimoiy-ruhiy usullari mavjud¹⁵. Boshqarishning iqtisodiy usulida kutilgan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy vositalardan foydalaniladi. Bu vositalar rejalashtirish, texnik-iqtisodiy tahlil, foyda, rentabellik, narx, kredit, moddiy rag'batlantirish, soliq va boshqa dastaklardan to'g'ri foydalanish muhim o'rin tutadi.

Pensiya ta'minotini boshqarishda ham boshqarish ob'ektlari va sub'ektlari mavjud bo'ladi. Davlat pensiya ta'minotini boshqarish ob'ektlari bo'lib turli moliyaviy munosabatlar hisoblanadi. Masalan, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa jamg'armalarni tashkil qilish va ishlatish bilan bog'liq munosabatlar boshqarish ob'ektlaridir. Bu moliyaviy munosabatlarni boshqarishga xizmat qiluvchi tashkiliy tuzilmalar (moliya organlari, soliq idoralari, korxonalaridagi moliyaviy xizmatlar va bo'limlar) esa moliyani boshqarish sub'ektlaridir.


Davlat pensiya ta'minotini boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi: moliyaviy munosabatlarni boshqarish; pul mablag'lari jamg'armalarini boshqarish; moliyaviy apparat faoliyatini boshqarish.

Moliyaviy – munosabatlarning har bir sohasi va har bir bo'g'inida boshqarish sub'ektlari bu munosabatlarga ta'sir etishning o'ziga xos maxsus

¹⁵ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom. – B. 185-186.

usullaridan foydalanadilar. Shu bilan birga, bu usullar ma’lum umumiylikka ega bo’lgan funktsional elementlardan iborat, bular: rejalashtirish, operativ boshqarish va nazorat.

O’zbekistonda davlat pensiya ta’minotini umumiy boshqarishni O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan Oliy majlis, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devoni amalga oshiradi. Davlat pensiya ta’minotini operativ boshqarish esa moliyaviy apparatga yuklatilgan. Uning yordamida davlat pensiya ta’minotining barcha tarkibiy bo’g’inlarida moliyaviy faoliyat ustidan boshqaruvni amalga oshiradi. Aynan, moliyaviy apparat moliyaviy rejalashtirish, hisob va tahlil, nazorat va tartibga solish, moliyaviy rejalarni tuzish va boshqarish ishlarini bajaradi (2.1-rasm).



2.1-rasm. O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minotini boshqarish organlarining guruhlanishi¹⁶

¹⁶ Allayarov Sh., Toshmuxammedova D. Davlat pensiya ta’minoti (o’quv qo’llanma) – T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2014. – B. 92

Boshqarish tarkibiy jihatdan korxonalar, firma, kompaniya, birlashma va boshqa miqyosida, hududiy jihatdan esa tuman, shahar, viloyat, davlat miqyosida bo'ladi. Boshqarish ishini davlatning boshqaruv organlari yoki boshqaruvchilar (menejerlar) amalga oshiradi.


Pensiya jamg'armasi o'z ishlarini davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi. Pensiya jamg'armasi hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, shuningdek, tegishli muhr va shtamplarga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarishning yuqori organi Pensiya jamg'armasining Kuzatuv kengashi hisoblanadi, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashining majlislari yil choragida kamida bir marta o'tkaziladi. Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparati Kuzatuv kengashining ishchi organi hisoblanadi. Majlisni Kuzatuv kengashi raisi, u bo'lmaganda esa – raisning o'rinbosari o'tkazadi. Kuzatuv kengashi majlisi, agar unda kengash a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashsa huquqiy vakolatli bo'ladi (kvorumga ega bo'ladi).

Pensiya jamg'armasi idoraviy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qarashli hamda o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari – Moliya vaziriga, Jamg'armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Pensiya jamg'armasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi

Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi to'g'risida¹⁷gi Nizomga¹⁷ amal qiladi. Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil qilish, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, pensiya hamda boshqa to'lovlar miqdorini qonunchilikda belgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilishni ta'minlashga mas'ul muhim davlat organidir.

Pensiya jamg'armasi tizimiga: jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari; jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari; Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi; bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.




2.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasi¹⁸

Jamg'arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta'minoti respublika byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-sonli qarori asosida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom.


¹⁸ <http://pfru.uz/uz/articles/5/>.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalari, funktsiyalari va vakolatlarini belgilaydi.



2.3-rasm. Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparatining tashkiliy tuzilmasi¹⁹

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009 yil 30 dekabrda PQ-1252-sonli qarori. 2-ilova.



2.4-rasm. Pensiya jamg'armasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari tashkiliy tuzilmasi²⁰

Quyidagilar Pensiya jamg'armasining asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;
- pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009 yil 30 dekabrda PQ-1252-sonli qarori. 3-ilova.

– tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o'tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanilishini ta'minlash;

– mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish;

– tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etish.

Pensiya jamg'armasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

a) Jamg'armaning daromadlari bo'yicha: jamg'arma mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlar, badallardan mablag'larni hamda boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi; har yili manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Jamg'arma daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi; davlat ijtimoiy sug'urtasi tizimining barqarorligini ta'minlash va uni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining o'rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi; "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da'volar bo'yicha belgilangan tartibda undirib oladi; badallar va boshqa to'lovlar tushishi hisobini olib boradi, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning hamda dehqon xo'jaliklari a'zolarining mehnat daftarchalarini belgilangan tartibda yuritadi va saqlaydi;

b) pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo'yicha: pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo'lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi; pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlaydi, ko'rib chiqadi va tekshiradi; jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlarida pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi; zarur tarzda rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo'yicha komissiyalar qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi; pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi; pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi; tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatlarning ishonchliligini tekshiradi;

v) pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarga xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha: pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblab chiqish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi, ishlamaydigan pensionerlarga aloqa tashkilotlari va banklar orqali, ishlaydigan pensionerlarga esa – tashkilotlar orqali pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lash yuzasidan topshiriqlarni rasmiylashtiradi va beradi; aloqa tashkilotlari, banklar tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning o'z vaqtida va to'g'ri etkazib berilishi hamda to'lanishi yuzasidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi; yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarga, shuningdek, dehqon xo'jaliklari a'zolariga – ular tomonidan ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar to'langan taqdirda, chaqaloq tug'ilganda beriladigan nafaqalar hisoblaydi va to'laydi; tashkilotlarning ishlaydigan pensionerlarga

pensiyalar 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko'rgan fuqarolarga kompensatsiya to'lovlarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarga xarajatlarini moliyalashtiradi;

g) fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha: ommaviy axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha xabardor qiladi; belgilangan tartibda tayinlangan shaxsiy pensiyalar to'lanishini tashkil etadi; imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarini qo'llash masalalari bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkil etadi; fuqarolarning murojaatlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqadi, fuqarolarni qabul qiladi; "O'zbekiston pochta" ochiq aksiyadorlik jamiyati va O'zbekiston Respublikasi Xalq bankining bo'linmalarida pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari hamda boshqa to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi monitoringini olib boradi va tekshiradi; normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi, fuqarolarning pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribani o'rganadi; Jamg'armaning mablag'larini oluvchilar, pensiyalar hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi; pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi; Jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini umumlashtiradi; pensiya ta'minoti masalalari va Jamg'armaning vakolatiga tegishli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi;

d) Jamg'armaning vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo'yicha: respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, bosh, tumanlararo, tuman, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyatiga rahbarlik qiladi; Jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha e'tiroz-da'vo ishlari olib borilishini tashkil etadi va amalga oshiradi.

Pensiya jamg'armasi o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega: Jamg'arma vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha axborotni davlat organlari va boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish; o'z vakolatlari doirasida Jamg'armaning vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni va metodik hujjatlarni ishlab chiqish; majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar miqdorlarini belgilash, shuningdek, pensiya ta'minotiga tegishli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha takliflar kiritish; Jamg'arma vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini boshqarish amaliyotida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi ham amal qilib kelmoqda. Bu masala O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 2 dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 702-II-sonli Qonuni asosida tartibga solinadi. Mazkur Qonun 2005 yil 1 yanvardan kuchga kirgan.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimiga qo'shimcha ravishda, ish beruvchilarning pensiya yoshiga etgan xodimlarning moddiy ahvolini yaxshilash, shu asosida pensionerlarga amaldagi pensiya to'lovlariga qo'shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, keksalik chog'ida fuqaroning o'z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida joriy qilindi.

Mazkur tizimning mamlakatimizda qo'llanilishi jarayonida quyidagilarning amal qilishi ko'zda tutilgan:

– jamg'arib boriladigan pensiyaning umumiy va majburiy xarakteri, ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirishdagi imtiyozlar kishining ijtimoiy himoyalani huquqining ta'minlanishi;

– jamg'arib boriladigan pensiya majburiy va ixtiyoriy shakllarning birligi teng huquqliligi shaxsning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan zaruriy darajasi ta'minlanadi va uning keksalik chog'ida yaxshi yashashi uchun ta'sir ko'rsatishi;

– turli xil pensiya tizimining bir vaqtning o'zida amal qilishidagi mustaqilligi va o'zini-o'zi idora qilish sharoitida majburiy jamg'arib boriladigan pensiya bo'yicha to'lovlar darajasi va tizimni barqarorligining davlat tomonidan kafolatlanishi;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxs va ish beruvchini moliyaviy ishtirokining majburiyligi, zaruriy holatlarda davlat subvensiyalarining jalb etilishi.

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxsga uning jamg'argan badallari to'lashidagi moliyaviy ishtiroki tufayli hosil bo'lgan mablag'dan turli shakldagi moddiy yordam va xizmatlar ko'rsatishi ta'minlanishi;

– aholining tegishli ijtimoiy kategoriyalarni qamrab oluvchi kishilar guruhi yoki mamlakatning barcha aholisining u yoki bu pensiya ta'minot turidan manfaatdorligi;

– barcha jamg'arib boriladigan pensiya tizimida qatnashuvchi shaxslarning xarajatlarini moliyalashtirish bo'yicha majburiyat va natijada ega bo'lingan huquq va kafolatlar nuqtai nazaridan tengligini ta'minlanishi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, respublikamiz hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega. "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga asosan:

– davlat jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlarida jamg'arilgan mablag'lari saqlanishi hamda to'lanishini kafolatlaydi;

– jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to'lovlari oluvchilar sifatida jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini

qonun hujjatlariga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega;

– to'lovlarni oluvchilar o'zlari mustaqil ravishda belgilaydigan muddat mobaynida har oylik jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olishni yoki jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini bir yo'la olishni tanlash huquqiga ega;

– fuqaro vafot etgan taqdirda, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varag'ida jamg'arilgan mablag'lar qonunda belgilangan tartibda merosga o'tadi va merosxo'rga bir yo'la to'la hajmda to'lanadi;

– fuqaro O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga, doimiy yashash joyiga chiqib ketayotgan bo'lsa, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varag'ida jamg'arilgan mablag'lar bir yo'la to'la hajmda to'lanadi.

2.2. Pensiya ta'minoti tizimini mablag' bilan ta'minlash amaliyoti tahlili

O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotini ta'minlash, barqarorlashtirish, modernizatsiya qilish, mamlakatda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi vazifalar davlat byudjet²¹iga bevosita bog'liqdir. Davlat byudjeti ijtimoiy (ishlab chiqarish) munosabatlarning bir qismini ifoda etib, davlatning ixtiyoriga mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot – milliy daromadning nisbatan kattagina qismini to'plash va uni jamiyat taraqqiyotining turli sohalarini (iqtisodiyot, maorif, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, ijtimoiy ta'minot, boshqaruv, mudofaa va boshqalar) rivojlanishiga yo'naltirish imkonini beradigan muhim taqsimlash vositasidir.

Davlat zimmasiga yuklatilgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni to'liq, o'z muddatlarida hamda ijobiy hal etishi uchun kerakli moliyaviy asos talab etiladi. Ushbu moliyaviy asosning markaziy bo'g'inini davlat byudjeti

²¹ Byudjet – (ingl. bydjet – hamyon, mablag') – belgilangan muddat uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig'indisi. Davlat byudjetida, ikki tushunchaning terminologik qo'shilishi mavjud: 1) byudjet – iqtisodiy (moliyaviy) kategoriya sifatida; 2) byudjet – mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida.

tashkil etadi. Davlat moliyasini sog'lomlashtirish, uning daromadlari va xarajatlarning mutanosibligini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan byudjet-soliq tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat byudjeti – davlatning muayyan vaqt (odatda, bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo'g'ini hisoblanadi, davlat byudjeti – davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini, ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq²² O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga quyidagilar kiradi: Davlat byudjeti; davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari; O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.

2.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami markazlashgan jamg'armalar tarkibida davlat byudjeti daromadlarining salmog'i 2013 yilda 69,4 foizni, 2014 yilda 60,9 foizni, 2015 yil bo'yicha esa 60,5 foizni tashkil etgan. Bu o'z navbatida davlat fiskal siyosatida davlat byudjeti (maqsadli fondlarsiz) markaziy o'ringa ega ekanini tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda davlat maqsadli jamg'armalarining ham ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Bu hol ular daromadlarining shakllanish ko'lamlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

²² O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son; 2014 y., 36-son, 452-modda). 46-modda

Xususan, davlat maqsadli jamg'armalar daromadlari 2012 yilda jamlanma byudjetning 29,7 foizini, 2013 yilda 33,2 foizini, 2014 yilda 33,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilda 35,7 foizni tashkil qilgan.

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti daromadlarining asosiy parametrlari²³, foizda

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1.	Davlat byudjeti daromadlari	57,1	69,4	60,9	60,5
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari	29,7	33,2	33,7	35,7
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari	13,2	6,3	4,7	3,8
Konsolidatsiyalashgan byudjetning jami daromadlari		100,0	100,0	100,0	100,0

Dastlab ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni aniq manbalar bilan ta'minlash maqsadida davlat byudjeti tarkibidan ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan byudjetdan tashqari maqsadli fondlar shakllangan. Masalan, davlat byudjeti tarkibiga kiruvchi "ijtimoiy sug'urta fondi" negizida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuzilgan. Bu va shu kabi boshqa fondlar davlat byudjetidan ajralib chiqqani bois adabiyotlarda "nobyudjet fondlar" yoki "byudjetdan tashqari fondlar" deb yuritilgan. Shuningdek, yangi Byudjet kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishigacha bo'lgan oxirgi o'n yilliklar davomida "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasi bilan bir qator jamg'armalarning davlat byudjetida konsolidatsiyalanishi (jamlanishi) belgilab berildi va ular byudjet nazariyasi va amaliyotida "davlat maqsadli jamg'armalari" degan umumiy nom oldi.

So'nggi yillarda davlat byudjeti bilan bir qatorda, davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Davlat maqsadli jamg'armalari milliy daromadni

²³ 2012-2013 yil ma'lumotlari "O'zbekiston raqamlarda/Uzbekistan v tsifrax" nomli statistik to'plamdan, 2014-2015 yillar ma'lumotlari O'zR Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda PQ-2099-sonli qarori va 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli qarori ilovalaridan olingan va muallif tomonidan umumlashtirilgan.

taqsimlash mahsulini aholi qatlamlariga etkazishning ishonchli vositasiga aylangan.

Ana shunday davlat maqsadli jamg'armalaridan biri O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisoblanadi. Ushbu jamg'arma fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek, boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi.

Ma'lumki, pensiya tizimi oldida uchta muhim maqsadlar turadi: fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash; mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash; bu daromad bilan kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash. Ana shu maqsadlarni amalga oshirish, o'z navbatida, moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Hozirgi kunda respublika ijtimoiy hayotidagi asosiy moliyaviy institut – byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi iqtisodiyotning tayanch bo'g'inidir. Aholining kam ta'minlangan, iqtisodiy yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilishdek mas'uliyatni o'zining asosiy maqsadi qilib olgan bu Jamg'armaning bugungi kundagi ahamiyati yuksakdir.

Pensiya jamg'armasi daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) majburiy to'lovlar va badallar: belgilangan miqdordardagi yagona ijtimoiy to'lov tushumlari; alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari; fuqarolarning sug'urta badallari; jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug'urta badallari; majburiy ajratmalar;

b) boshqa to'lovlar: "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga

pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi; mazkur qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari; ushbu qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari; dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari; hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus jamg'armasiga hamda Jamg'arma xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalardan tashqari); yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan, davlat byudjeti mablag'lari va ixtiyoriy badallar.

Yuqorida nomi keltirilgan Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarining miqdori to'lovchilarga soliq organlari tomonidan etkaziladi va Pensiya jamg'armasiga to'lanadigan majburiy to'lovlar soliqlar va yig'imlarga tenglashtiriladi. Ish haqi fondidan ajratmalar va sug'urta badallari bo'yicha hisobotlar har chorakda soliq inspeksiyasiga topshiriladi.

Majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarni o'tkazish Jamg'arma daromadlarining belgilangan tasniflariga muvofiq tushumlarning har bir turi bo'yicha Jamg'armaning banklardagi tegishli hisob raqamlari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

– manbalar turlari bo'yicha Jamg'armaga majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liqligi va o'z vaqtida to'lanishi nazorat qilinishini;

– manbalar turlari va to'lovchilar bo'yicha Jamg'armaga majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar hisobi yuritilishini;

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Jamg'armaga majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar to'g'ri hisoblanishini, shuningdek, Jamg'arma bilan o'zaro hisob-kitoblarning holati tekshirilishini;

– qonun hujjatlariga muvofiq majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarni hisoblash tartibi va to'lash muddatlari buzilganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy va ma'muriy javobgarlik choralari qo'llanilishini;

– badallarning shaxslar bo'yicha hisobini amalga oshirish va mehnat daftarchalarini yuritish uchun har chorakda Jamg'armaga yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxslar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan to'langan badallarning miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlaydi.

Quyida keltirilgan jadvalda keyingi yillarda ish beruvchilarning mehnat haqi fondiga nisbatan hisoblanadigan va to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lovning ijtimoiy jamg'armalar o'rtasida taqsimlanish foizlari ko'rsatilgan (2.2-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yuridik shaxslarning ish haqi fondidan Pensiya jamg'armasiga tushadigan mablag'lar uchun belgilangan stavka 2007-2008 yillarda 23,5 foizni tashkil etdi, 2009 yilda 23,6 foiz, 2010-2015 yillarda esa 24,8 foiz qilib belgilandi. 2015 yilda kichik biznes vakillari – mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ular uchun yagona ijtimoiy to'lovning miqdori ish haqi fondiga nisbatan 15 foiz qilib belgilandi²⁴.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yi 4 dekabrda PQ-2270-sonli qarorining 25 ilovasi asosida.

2.2-jadval

2006-2015 yillarda yuridik shaxslarning ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lov miqdori va uning taqsimlanishi²⁵

Ko'rsatkichlar	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010-2015 yy.	2015 y. (mikrofirmalar, kichik korxonalar, fermer xo'jaliklari)
Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi	25,0	24,0	24,0	24,0	25,0	15,0
Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	24,2	23,5	23,5	23,6	24,8	14,8
Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma	0,5	0,3	0,3	0,2	0,1	0,1
Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi	0,3	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, (Qarang: 2.3-jadval) Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida eng katta ulushni yuridik shaxslar ish haqi fondidan ajratmalar tashkil etadi. Ushbu ajratmalar hisobidan fondning 2012 yilda 59,5 foizi, 2013 yilda 51,7 foizi, 2014 yilda 56,1 foizi, 2015 yil bo'yicha esa 50,3 foizi shakllantirilgan. Kattaligi jihatidan keyingi o'rinda mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar turadi, ular bo'yicha tushumlar Jamg'arma daromadlarining 2012 yilda 17,4 foizini, 2013 yilda 15,4 foizini, 2014 yilda 14,9 foizini, 2015 yil bo'yicha esa 12,5 foizini tashkil qilgan. Fuqarolarning majburiy badallarining ulushi 13,8-14,9 foizni tashkil etadi. Boshqa daromadlarning Pensiya jamg'armasi daromadlaridagi ulushi uncha katta emas.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

- Jamg'arma bo'limlari tomonidan tayinlanadigan pensiyalarni to'lash;
- bolalikdan nogironlarga, davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalarni to'lash;
- korxonaga tugatilganda, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda

²⁵ 2006-2015 yillar uchun qabul qilingan "Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va budjet parametrlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida muallif tomonidan umumlashtirildi

mayiblangan, kasb kasalligiga uchragan yoki sog'lig'iga boshqa shikast etkazilgan xodimga zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar;

- dafn marosimi uchun nafaqalarni to'lash;
- bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni to'lash;
- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalariga qo'shimcha ta'til uchun to'lovlarni to'lash;
- qonun hujjatlariga muvofiq Pensiya jamg'armasidan mablag' bilan ta'minlanadigan boshqa ijtimoiy to'lovlarni to'lash.

2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibi va tuzilishi²⁶, mlrd. so'mda

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	summasi	ulushi	summasi	ulushi	summasi	ulushi	summasi	ulushi
Daromadlar	8065,4	100,0	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0
Yil boshiga qoldiq	280,1	3,5	602,2	8,8	1067,3	8,2	2592,0	15,7
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lovdan tushumlar	4799,2	59,5	5907,4	51,7	7299,5	56,1	8324,2	50,3
Fuqarolarning majburiy badallari	1110,2	13,8	1482,7	14,4	1877,2	14,4	2463,8	14,9
Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1401,5	17,4	1591,3	15,4	1933,0	14,9	2063,8	12,5
Boshqa daromadlar	474,4	5,8	718,5	9,7	836,7	6,4	1113,1	6,7

Quyida keltirilgan jadvalda (2.4-jadval) Pensiya jamg'armasining 2012-2015 yillardagi xarajatlari tarkibi va tuzilishi tahlil qilingan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Pensiya jamg'armasining mablag'lari asosan ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi, xususan, 2012 yilda bu maqsadlarga Jamg'arma mablag'larining 89,8 foizi, 2013 yilda 88,3 foizi, 2014 yilda 86,0 foizi, 2015 yilda esa 77,5 foizi

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012, 2013, 2014, 2015 yilgi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va budjet parametrlari to'g'risidagi Qarorlari (PQ-1675, PQ-1887, PQ-2099, PQ-2270) asosida muallif tomonidan umumlashtirildi.

yo'naltirilgan. Ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash xarajatlari tahlil qilinayotgan yillarda o'rtacha 3,6-2,9 foizni tashkil etmoqda.

2.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibi va tuzilishi²⁷, (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	summa	%	summa	%	summa	%	summa	%
Xarajatlar	8065,4	100,0	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0
Ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash xarajatlari	7246,0	89,8	9097,9	88,3	11191,9	86,0	12838,1	77,5
Ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar to'lash xarajatlari	290,9	3,6	317,4	3,1	426,6	3,3	474,8	2,9
Qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar, bola tug'ilganlikda, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar	12,8	0,6	20,5	0,2	29,1	0,2	105,2	0,6
Boshqa xarajatlar	1,8	0,02	2,1	0,0	2,4	0,0	2,8	0,0
Yil oxiriga qoldiq	513,9	6,4	864,2	8,4	1363,7	10,5	3136,1	19,0

Qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar ulushi yildan-yilga kamayish tendentsiyasiga ega (2012 yildagi 0,6 foizdan 2014 yildagi 0,2 foizga). Buning asosiy sababi, pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liq bo'lib, avval Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan bir qator nafaqa va

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012, 2013, 2014 va 2015 yilgi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va budjet parametrlari to'g'risidagi Qarorlari (PQ-1675, PQ-1887, PQ-2099, PQ-2270) asosida

to'lovlarning davlat byudjetiga o'tkazilishi Pensiya jamg'armasiga pensiyalarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan bosimni birmuncha kamaytirdi.

2016 yilning 1 yanvaridan O'zbekistonda fuqarolarning Moliya vazirligi qoshidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga o'tkaziladigan majburiy sug'urta badallari stavkasi 7 foizdan 7,5 foizga oshirildi²⁸. Bunda yuridik shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 25 foiz miqdorida saqlab qolindi. Mazkur choralar 2016 yilgi davlat byudjetida ko'rsatilgan bo'lib, Hukumat qarori bilan tasdiqlangan. Korxonalar, muassasa va tashkilotlarning majburiy sug'urta badallari, fuqarolarning majburiy sug'urta badallari va korxonalar, muassasa va tashkilotlar tomonidan realizatsiya qilingan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning haqiqiy hajmidan ajratiladigan majburiy to'lovlar Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy daromadi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning salomatligiga putur etganligi, zararli mehnat sharoitlarida ma'lum muddat oralig'ida ishlaganligi, muddatidan oldin pensiyaga chiqarib yuborilishi yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar natijasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalar tayinlanganda Jamg'armaning bu maqsadlardagi to'lovlari pensiya munosabatlarinig boshqa sub'ektlaridan, xususan, korxonalar va tashkilotlardan, aholi bandligiga ko'maklashish xizmati tashkilotlaridan va boshqa javobgar shaxslardan Pensiya jamg'armasiga qoplab beriladi. Bu borada tushumlarning o'z vaqtida va to'liqliligini ta'minlash maqsadida Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari va davlat soliq xizmati organlari axborot almashinuvi bo'yicha o'zaro hamkorlikni, shu jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradilar.

²⁸http://www.mp3lar.com/news/zhismonij_shakhs_lar_uchun_pensija_zham_armasiga_mazhburiy_azhratma_7_5_foizga_oshadi

2.3. O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining o'ziga xos xususiyatlari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir ishchi-xizmatchi mehnat qobiliyatini yo'qotgan, boquvchisidan ayrilgan taqdirda va qonun bilan belgilangan boshqa holatlarda yoshga qarab belgilanadigan ijtimoiy ta'minot huquqiga ega. Mazkur huquqni realizatsiya qilish tartibi quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi:

– O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonuni (03.09.1993 y.);

– O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni (18.11.1991 y.);

– O'zbekiston Respublikasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi Qonuni (16.04.2009 y.);

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli etkazilgan zararni to'lash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori (11.02.2005 y.);

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori (08.09.2011 y.);

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga, nogironlikni va kasbiy mehnatga layoqat yo'qotilishi darajasini aniqlashga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori (01.07.2011 y.);

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga

muvofiq pensiyalarni to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori (23.12.2014 y.) va h.k.

Yuqorida qayd etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan har bir muayyan holatga tegishli qismi bo'yicha pensiya yoshiga etgan shaxslarga, nafaqat, pensiya va nafaqalar tayinlanishi va to'lanishi, balki ular tomonidan mehnat qobiliyati yo'qotilganligi bilan bog'liq boshqa to'lovlar ham tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, sug'urta badallarini to'laydigan shaxslar pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'ladilar. Bunda, har bir toifa (yollanma ishlaydiganlar, yakka tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari va h.k.) uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi belgilangan.

Ayni paytda, sug'urta badallarini to'lamaydigan shaxslar (mehnat stajiga ega bo'lmagan yoki ish staji etarlicha bo'lmagan shaxslar) ham yuqorida qayd etilgan qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'ladilar. Jismoniy shaxs bir necha turdagi pensiya huquqiga ega bo'lgan taqdirda, u pensiya turini tanlash huquqiga ega. Har bir turdagi pensiyani (nafaqani) hisoblab chiqarish tartibi yuqorida qayd etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, O'zbekistonda yoshga qarab belgilanadigan pensiya sug'urtalangan xodimlarga umumiy asoslarda tayinlanadi: erkaklarga – oltmish yoshga to'lgandan so'ng, umumiy mehnat staji eng kamida yigirma besh yil, ayollarga – ellik besh yoshga to'lgandan so'ng, umumiy mehnat staji eng kamida yigirma yilni tashkil qilishi kerak.

Sug'urtalangan xodimlarning alohida toifalariga pensiya kamaytirilgan pensiya yoshida, taalluqli holatlarda esa kamaytirilgan mehnat stajida ham belgilanadi. Mazkur shaxslar ro'yxati qonunlar bilan belgilanadi, jumladan, ushbu toifaga zararli ishlab chiqarishlarda ishlaydigan shaxslar kiritiladi.

Nogironlik bo'yicha pensiya qonunlar bilan belgilangan tartibda quyidagilar oqibatida I va II guruh nogironlari deb e'tirof qilingan sug'urtalangan xodimlarga tayinlanadi:

- mehnat faoliyati davomiyligiga qarab, ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi;

- boshqa sabablar – tegishli umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan holatlarda, uning davomiyligi sug'urtalangan xodimning nogironlik yuz bergan vaqtdagi yoshiga bog'liq bo'ladi.

Boquvchisidan ayrilgan holat bo'yicha pensiya mehnat faoliyati davomiyligidan qat'iy nazar, ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida boquvchisi vafot etgan oilaning ishga yaroqsiz (mehnat qobiliyatini yo'qotgan) a'zolariga belgilanadi, boshqa sabablar oqibatida boquvchisi vafot etgan taqdirda esa tegishli umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan holatlarda, uning davomiyligi sug'urtalangan xodimning boquvchisi vafot etgan kundagi yoshiga bog'liq bo'ladi.

Ishda shikastlangan yoki kasb kasalligiga ega bo'lgan shaxslar misolida nogironlik tayinlanishi va taalluqli ravishda, pensiya ta'minoti tartibini ko'rib chiqamiz. Yuqorida qayd etilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan me'yorlar ishda shikastlangan va kasb kasalligiga ega bo'lgan xodimlarning o'z mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida nogironlik uchun, shuningdek tibbiy, kasbiy-mehnat va ijtimoiy reabilitatsiya huquqini ta'minlaydi. Ishda shikastlangan yoki kasb kasalligiga ega bo'lgan shaxslarning kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini, shuningdek, muhim faoliyat cheklanishi va nogironlik guruhi darajalarini belgilash tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Ular ustidan davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasi ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi tufayli sog'liq shikastlanishlari oqibatlaridan kelib chiqib, zararlangan shaxsning ishda

shikastlanish va/yoki kasb kasalligidan oldingi xuddi shunday mazmunda va xuddi shunday hajmda kasb faoliyatini bajarish imkoniyatlari hisobga olingan yoxud oddiy, maxsus tashkil qilingan ishlab chiqarish va boshqa sharoitlarda malaka pasayishi, bajariladigan ish hajmi va mehnat og'irligi kamayishi hisobga olingan holda belgilanadi hamda kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilashning klinik-funksional mezonlariga muvofiq, 5 foizdan 100 foizgacha doirada tayinlanadi. Bugungi kunda respublikada 16 yoshdan katta yoshdagi nogironlarning umumiy soni 572,2 ming kishini tashkil qiladi, ulardan ishda shikastlanish oqibatida nogiron bo'lganlar 8,5 ming kishini (1,4%), kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlar taxminan 2,2 ming kishini (0,4%)ni tashkil qiladi. Ulardan ishda shikastlanish oqibatida 1-guruh nogironlari – 5,3%, 2-guruh nogironlari – 42,8%, 3-guruh nogironlari – 51,9%ni tashkil qiladi.

2014 yilda mehnatda mayiblanish oqibatida 94 kishiga nogironlik birinchi marta belgilangan bo'lib, ulardan 1-guruh nogironlari – 17%, 2-guruh nogironlari – 51,1%, 3-guruh nogironlari – 31,9%ni tashkil qilgan. Kasallanish turlari bo'yicha jarohatlar, shuningdek tana a'zolarining amputatsiya qilinishi birinchi o'rinda qolmoqda, keyingi o'rinlarni esa tayanch-harakat tizimi kasalliklari, ko'z va asab tizimi kasalliklari egallaydi. Kasb kasalliklari sababli nogironlar orasida 1-guruh nogironlari – 2,0%, 2-guruh nogironlari – 48,5%, 3-guruh nogironlari – 49,5%ni tashkil qiladi.

Nafas olish tizimi kasalliklari birinchi o'rinni egallaydi – 37,2%, so'ngra esa quloq og'irligi (karlik) va boshqa “LOR” organlari kasalliklari – 10,5%ni tashkil qiladi. 2014 yilda kasb kasalliklari sababli 1-guruh nogironlari 56 kishidan iborat bo'lib, ulardan 2-guruh nogironlari – 12,5%, 3-guruh nogironlari – 87,5%ni tashkil qilgan. Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan tibbiy-ijtimoiy ekspertiza asosida organizmning buzilgan yoki yo'qotilgan funksiyalarini, shuningdek, nogironning muayyan mehnat faoliyati turlarini bajarish imkoniyatlarini tiklashga, o'rnini to'ldirishga qaratilgan tibbiy, kasbiy va boshqa rehabilitatsiya qilish chora-tadbirlari majmuini o'z ichiga olgan Nogironlarni rehabilitatsiya qilish alohida (individual) dasturi ishlab chiqilmoqda.

Nogironlarni reabilitatsiya qilish alohida (individual) dasturiga muvofiq, tashkilotlarda band nogironlarga zarur mehnat shart-sharoitlari yaratilmoqda.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari va tibbiy-konsultativ komissiyalari xulosalari asosida qonunlarga muvofiq joylarda davlat hokimiyati organlari, mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi organlari, boshqa davlat organlari tomonidan nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatilmoqda.

Bugungi kunda mehnat va pensiya qonunchiligiga kiritilgan zamonaviy talablar va o'zgarishlarga muvofiq, ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida shaxslarning nogironlik va kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilashda hamda nogironlarni reabilitatsiya qilish alohida (individual) dasturi ishlab chiqilishida tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

- turli ish beruvchilarda ishchi-xizmatchilarga ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilash tartibi;

- “ishda shikastlanish” va “kasb kasalligi” sabab bog'liqligini, shuningdek, tibbiy-mehnat ekspert komissiyalariga dastlabki murojaat qilinganda, pensiya yoshiga etgan shaxslarga kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilash tartibi;

- bosh sanitar shifokor tomonidan 2004 yil 22 iyulda tasdiqlangan nogironlarni oqilona kasbiy ishga joylashtirish to'g'risida MU012-3/0032-sonli Metodik ko'rsatmalari zamonaviy talablariga muvofiq qayta ko'rikdan o'tkazish.

2.5-jadval

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari²⁹

2014 yil	2015 yil	Izohlar
Byudjet Kodeksining 306-moddasiga muvofiq Kodeksning 172-moddasida ko'rsatilgan ish	O'zbekiston Respublikasi Qonuni-379-son Qonun 4-moddasining 34-bandi bilan Kodeks 306-	O'zbekistonning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari va konsullik xodimlari,

²⁹ <http://gazeta.norma.uz/publish/doc>.

<p>haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari solish ob'ekti hisoblanadi</p>	<p>moddasining birinchi qismi quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirildi: “Bunda O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish ob'ekti ularning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilguniga qadar oxirgi ish joyi bo'yicha olingan, O'zbekiston Respublikasida byudjet muassasalari xodimlari uchun ish haqi oshirilishi hisobga olingan holda qayta hisoblanadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi”</p>	<p>shuningdek respublika Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari solish ob'ekti belgilandi. Mazkur xodimlarning sug'urta badallarini har oyda, keyingi oyning 10-sanasi kechiktirmay to'lash bo'yicha majburiyat Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi (<i>O'RQ-379-son Qonun 4-moddasining 36-bandi</i>)</p>
<p>Kodeks 308-moddasining 5-bandiga muvofiq yosh mutaxassislariga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalarga yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari hisoblab yozilmaydi. Mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda DBQning xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlarga YaIT hisoblab yozilmaydi</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Qonuni - 379-son Qonun 4-moddasining 35-bandi bilan Kodeksning 308-moddasi birinchi qismining 5-bandi chiqarib tashlandi; ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etildi: “Yagona ijtimoiy to'lov quyidagilarga nisbatan hisoblab chiqarilmaydi: O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minotiga, pul mukofotlariga va boshqa to'lovlarga; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlariga”</p>	<p>2015 yil 1 apreldan yosh mutaxassislariga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalarga oid imtiyoz (mohiyatan, amalda qo'llanilmagan) bekor qilinadi. 2015 yilning 1 yanvaridan boshqa imtiyoz joriy qilindi – Konstitutsiyaviy sudning, umumiy yurisdiksiya sudlarining va xo'jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlarining xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlariga YaIT hisoblab yozilmaydi. Mazkur shaxslarning daromadlariga sug'urta badallari belgilangan tartibda solinadi</p>
<p>Kodeks 311-moddasida ayrim toifadagi jismoniy shaxslar – yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklarining a'zolari va</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Qonuni - 379-son Qonun 4-moddasining 36-bandi bilan Kodeksning 311-moddasi oltinchi qism bilan</p>	<p>Yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi</p>

<p>boshqalar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan</p>	<p>to'ldirildi, unga muvofiq yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan sug'urta badallarini to'lash ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi</p>	<p>faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari sug'urta badallarini to'lashni boshlaydigan muddat belgilandi</p>
<p>Prezidentning PQ-2099-son Qarorining 3-bandi bilan 2014 yilgi YaIT va fuqarolarning sug'urta badallari stavkalari quyidagicha belgilangan edi: YaIT stavkasi – 25%; sug'urta badallari stavkasi – 6,5%</p>	<p>2015 yilgi YaIT stavkalari tabaqalashtirildi: mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek fermer xo'jaliklari uchun – 15% (quyida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno); boshqa soliq to'lovchilar uchun – 25%. “SOS – O'zbekiston bolalar mahallari” uyushmasi hamda nogironlar mehnatidan foydalanadigan korxonalar uchun YaITning imtiyozli stavkalari saqlab qolindi (tegishincha 7% va nogironlar MHTFdanda 4,7%). Sug'urta badallari stavkasi 7% gacha oshirildi</p>	<p>Prezidentning PQ-2270-son Qaroriga 25-ilovada 2015 yilgi YaIT stavkalari, Prezidentning PQ-2270-son Qarorining 3-bandida sug'urta badallari stavkalari belgilandi</p>
<p>Prezidentning 7.04.2014 yildagi PF-4609-son Farmonining 8-bandiga muvofiq 2014 yilning ikkinchi choragi uchun soliq solishdan boshlab, yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari (chakana savdo tashkilotlaridan tashqari) qurilishi yakunlangan ob'ektni qabul qilish hujjati tasdiqlanganidan keyin 6 oy davomida, biroq ularning davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng 1 yildan ko'p bo'lmagan davrda, yagona ijtimoiy to'lovni, ushbu to'lovlarning tasdiqlangan eng kam miqdorlarini hisobga olmagan holda, amalda bajarilgan ish hajmlaridan kelib chiqib to'laganlar</p>	<p>Prezidentning 9.12.2014 yildagi PF-4677-son Farmoniga ilovaning 4-bandi bilan o'zgartirishlar kiritildi, ularga muvofiq yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 6 oy davomida, agar mazkur muddatda ular o'z ehtiyojlari uchun ob'ektlar qurgan taqdirda, qurib bitkazilgan ob'ektni qabul qilish hujjati tasdiqlangan sanadan boshlab 6 oy o'tgungacha, biroq ularning davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng 1 yildan ko'p bo'lmagan davrda yagona ijtimoiy to'lovlarni ushbu to'lovlarning tasdiqlangan eng kam miqdorlarini hisobga olmagan holda to'laydilar</p>	<p>YaITni eng kam miqdorni hisobga olgan holda to'lash tartibi Yagona ijtimoiy to'lovning eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom (<i>MV va DSQning AV tomonidan 13.04.2010 yilda 2095-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan</i>) bilan tartibga solinadi</p>

Yuqorida qayd etilgan ishda shikastlanish yoki kasb kasalligi oqibatida shaxslarning nogironligi va kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini belgilashda yuzaga keladigan muammolar tufayli respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiya tomonidan mazkur shaxslarni yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar kiritiladi:

1. O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Mehnat vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiya

o'rtasida kelgusida ishda shikastlanish va kasb kasalliklari holatlarini qisqartirishga, shuningdek ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirishga qaratilgan o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash;

2. Ish beruvchi tomonidan tegishli to'lovlar uchun jismoniy shaxs huquqlarini ta'minlash maqsadida ishda shikastlangan va kasb kasalliklariga ega shaxslarni ko'rikdan o'tkazishda kasaba uyushmalari vakillarining tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari yig'ilishlarida ishtirok qilishlari;

3. Tez-tez takrorlanib turadigan ishda shikastlanish va kasb kasalliklari holatlari boshqa korxonalar va tashkilotlarda yuz berishining oldini olish maqsadida bunday holatlarning muntazam tahlilini o'tkazish;

4. Kasb kasalliklari holatlari mavjud bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini (29.08.2012 y. 2387-sonli) takomillashtirish.

Davlatimiz rahbarining 2013 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Farmoniga asosan, 2014 yil 1 yanvardan boshlab fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnoma asosida ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar agar ularning daromadlari (gonorar, mukofot va boshqalar) qonunchilikda belgilangan yoshga doir pensiyaning eng kam miqdoridan past bo'lgan taqdirda to'liq miqdorda to'lanadi. Deylik, yoshga doir pensiyani oluvchi ishlamaydigan pensioner biror ishni (xizmatni) bajarishga 10 fevraldan 1 martga qadar bo'lgan davr uchun 150 ming so'mga kelishib, ish beruvchi bilan fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnoma tuzdi. U shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni belgilangan muddatda tugatib bo'ldi. Fuqaroning daromadi qonunchilikda belgilangan yoshga doir pensiyaning eng kam miqdoridan oshmaganligi sababli pensiya to'liq miqdorda to'lanadi. Agar pensioner uch oylik muddatga va 450 ming so'mga shartnoma asosida ishlasa, shartnoma amal qilish davrida ham u pensiyasini to'liq hajmda oladi. Sababi uning o'rtacha oylik daromadi har oyga 150 ming so'mga to'g'ri kelib, bu mablag' ham yoshga doir pensiyaning eng kam miqdoridan oz. Bordinyu, o'rtacha oylik daromadi yoshga doir pensiyaning eng kam miqdoridan oshsa

(masalan, 200 ming so'm), pensionerga tegishli davr uchun pensiyaning ellik foizi to'lanadi. Tashkilot rahbarlari pensioner bilan fuqarolik-huquqiy shartnomasi tuzilganligi to'g'risida pensionerning yashash joyidagi Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limiga hamda pensiya tayinlangan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklariga, Milliy xavfsizlik xizmati va Davlat bojxona qo'mitasiga besh kunlik muddatda xabar berishi va fuqarolik-huquqiy shartnomasining nusxasini taqdim etishi shart. Shuningdek, pensionerlar (oilaning boshqa a'zolari uchun boquvchisini yo'qotganlik pensiyani oluvchidan tashqari) ham fuqarolik-huquqiy shartnomasi tuzilganda tegishli pensiya tayinlangan idoraga (o'zining yashash joyidan) xabar berishi talab etiladi.

Qonunchilikda belgilangan quyidagi toifadagi ishlovchi pensionerlar esa ilgari gidek pensiyasini to'liq hajmda olish huquqiga ega: urush nogironlari va qatnashchilari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar; ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy xizmatni o'tagan yoki front ortida ishlagan shaxslar; 1 va 2-guruh nogironlari; Chernobil AES halokatidan ziyon ko'rgan shaxslar; fuqarolar yig'inlari va mahallalarning raislari; fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi ayol pensionerlar (yoshga doir pensiyani olganda).

3-BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Pensiya tizimini isloh qilishni jahon tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari

Hozirgi kunda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish sharoitida davlatning maqsadli jamg'armalarini daromadlilikini oshirish, Jamg'arma mablag'laridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardandir. Bizning fikrimizcha, aholini ijtimoiy himoyalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustahkamlash, uning aniq toifadagi kishilarga qaratilishini kuchaytirish lozim, bu ishlarning hammasiga davlatning maqsadli jamg'armalarining mablag'larini keng jalb etish zarur.

Fuqarolarni nafaqalar bilan ta'minlashga oid munosabatlar, qonunlar vositasida tartibga solinishi yo'lga qo'yilishi kerak. Shu maqsadda hozir bu sohada amal qilayotgan turli-tuman qonunosti me'yoriy hujjatlari o'rniga maxsus qonunlar qabul qilinishi dolzarb bo'lib turibdi. Nafaqalar tayinlash bo'yicha alohida qonun yo'qligi bu borada o'zaro muvofiqlashtirilgan yagona yondashuv shakllanishiga halal bermoqda, turli anglashilmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Tarixga nazar tashlasak, birinchi marta 1880 yilda 70 yoshga to'lgan fuqarolarga davlat tomonidan pensiya ijtimoiy to'lov sifatida Germaniyada berildi. Keyinchalik 70 yoshga to'ladigan aholi soni kam bo'lganligi munosabati bilan 65 yoshga pasaytirilgan. Hozirgi kunga kelib ko'pchilik mamlakatlarda fuqarolarning pensiya yoshi 65 yoshni tashkil qilmoqda. Evropa va AQShda 2060 yilga kelib, pensiya yoshini erkaklar va ayollar uchun bir xil 70 yosh sifatida belgilash ko'zda tutilgan.

Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari xususida gap ketganda hozirgi paytda jahon mamlakatlarida qo'llanilib kelinayotgan mehnat pensiyasini olish uchun

andozaviy pensiya yoshi va ish stajiga nisbatan bo'lgan talablar xususida holatlar ham alohida ahamiyatga ega (3.1-jadval).

3.1-jadval

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida mehnat pensiyasini olish uchun andozaviy pensiya yoshi va ish stajiga bo'lgan talablar³⁰

№	Mamlakatlar	Andozaviy pensiya yoshi		Ish stajiga talablar	
		Erkaklar	Ayollar	Erkaklar	Ayollar
1.	AQSh	66	66	10	10
2.	Buyuk Britaniya	65	60	44	39
3.	Gretsiya	65	65	12	12
4.	Germaniya	65	65	15	15
5.	Ispaniya	65	60	18	18
6.	Italiya	60	60	40	40
7.	Frantsiya	66	66	10	10
8.	Yaponiya	65	65	25	25
O'rtachasi		64,5	62,6	21,2	20,5

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha andozaviy pensiya yoshining erkaklar bo'yicha 64,5 yoshga va ayollar bo'yicha esa 62,6 yoshga teng qilib belgilanganligi, ish stajiga talablarning erkaklar uchun 10 yildan (masalan, AQSh va Frantsiyada) 40-44 yilgacha (masalan, Buyuk Britaniya va Italiyada) tebranishi, barcha mamlakatlarda (bundan Buyuk Britaniya mustasno) ish stajiga nisbatan bo'lgan talabning erkak va ayollar uchun bir xilligi va h.k.lar bu boradagi jaxon tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish yoki foydalanmaslik imkoniyatlari borasida chuqur tahlillarni olib borishni taqozo etadi.

Halqaro miqyosda, aholi turmush darajasining yaxshilanib borishi hamda meditsina sohasida so'ngi 10 yillar ichida yuz bergan kashfiyotlar insonlarning o'rtacha umr ko'rish yoshi davomiyligini uzayishiga va pirovard natijada jamiyat aholisi tarkibida qariyalar (pensionerlar) sonining nisbatan o'sishiga olib keldi (3.2-jadval).

³⁰ www.undp.uz.

3.2-jadval**Dunyo mamlakatlarida aholining o'rtacha umr ko'rish yoshining o'zgarishi³¹**

Mamlakatlar	1970-1975 Yillar	2000-2005 yillar	2010 yil	1970-2010 yillar farqi
AQSh	71,5	77,4	78,7	+7,2
Buyuk Britaniya	72,0	78,5	80,3	+8,3
Germaniya	71,0	78,7	80,6	+9,6
Italiya	72,1	79,9	82,0	+9,9
Ispaniya	72,9	80,0	81,6	+8,7
Frantsiya	72,4	79,6	81,7	+9,3
Yaponiya	73,3	81,9	83,6	+10,6
Xitoy	63,2	72,0	73,7	+10,5
Xindiston	50,7	62,9	65,8	+15,1
Rossiya	69,0	64,8	69,1	+0,1
O'zbekiston	63,6	66,5	68,6	+5,0

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 1950 yilda aholi umumiy soniga nisbatan 70 yoshdan katta bo'lgan aholining soni 1 foizni tashkil etgan, 2000 yillar boshiga kelib ushbu ko'rsatkich 5 foizni tashkil etdi (3.3-jadval).

3.3-jadval**Dunyo mamlakatlarida 65 va undan yuqori yoshdagilarning aholi umumiy sonidagi ulushi (foiz hisobida)³²**

Mamlakatlar	65 va undan yuqori yoshdagilarning aholi umumiy sonidagi ulushi					
	1980 y.	1990 y.	2000 y.	2010 y.	2015 y.	1980-2015 yillar farqi
AQSh	11	12	12	13	14,1	+3,1
Buyuk Britaniya	15	16	16	17	18,1	+3,1
Germaniya	16	15	16	21	20,9	+4,9
Italiya	13	15	18	20	22,1	+9,1
Ispaniya	11	14	17	17	18,3	+7,3
Frantsiya	14	14	16	17	18,5	+4,5
Yaponiya	9	12	17	23	26,2	+17,2
Xitoy	5	6	7	8	9,6	+4,6
Xindiston	4	4	4	5	5,8	+1,8
Rossiya	10	10	12	13	13,1	+3,1
O'zbekiston	5	4	4	4	4,4	-0,6

1998 yilda jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi pensionerlar soni ushbu mamlakatlarda yashayotgan voyaga etmagan aholi soniga tenglashdi. Bu

³¹ www.undp.uz.

³² www.undp.uz.

ko'rsatkich 2050 yilga kelib butun dunyo mamlakatlarida shakllanishi kutilmoqda.

Aholining umumiy sonida pensionerlar sonining ortishi bilan birga minimal yashash minimumi oshib bormoqda. Natijada mazkur tizimda davlat pensiya xarajatlarini oshirish va uning daromadlar manbaini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada, Evropa Ittifoqi mamlakatlari tajribalarini keltirish o'rinlidir. Masalan, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya mamlakatlarida o'rtacha umr ko'rish 2,5 yilga (65 yoshdan keyin 1,7 yilga) ko'paygani barobarida istiqbolda pensiya ta'minoti xarajatlarini YaIMga nisbatan Frantsiyada 0,5 f.p.ga, Germaniyada 2,8 f.p.ga va Buyuk Britaniyada 1,5 foiz punktga oshirish nazarda tutilmoqda³³.

3.4-jadval

Evropa Ittifoqi mamlakatlarda davlat pensiya xarajatlari rivojlanish tendentsiyasi³⁴, YaIMga nisbatan foizda

Davlatlar	1990 y.	1995 y.	2000 y.	2005 y.	2009 y.	2020 y.	2025 y.	2030 y.
Avstriya	11,4	12,3	12,2	12,4	13,5	15,1	16,1	16,7
Belgiya	9,1	9,3	8,9	9,0	10,0	13,1	14,5	15,5
Chexiya	5,8	6,1	7,2	7,0	8,3	8,7	8,7	8,9
Daniya	5,1	6,2	5,3	5,4	6,1	10,8	10,6	10,7
Finlyandiya	7,3	8,8	7,6	8,4	9,9	14,0	14,9	15,6
Frantsiya	10,6	12,0	11,8	12,4	13,7	14,4	14,5	14,9
Germaniya	9,7	10,5	11,1	11,4	11,3	10,9	11,4	12,0
Gretsiya	9,9	9,7	10,8	11,8	13,0	13,7	13,6	14,1
Vengriya	-	-	7,6	8,5	9,9	11,5	11,4	11,1
Irlandiya	4,9	4,3	3,1	3,4	5,1	9,0	9,0	9,0
Italiya	10,1	11,3	13,5	13,9	15,4	14,5	14,4	14,5
Lyuksemburg	8,2	8,8	7,5	7,2	7,7	10,8	12,4	14,0
Niderlandiya	6,7	5,8	5,0	5,0	5,1	7,4	8,3	9,1
Polsha	5,1	9,4	10,5	11,4	11,8	10,9	11,1	10,9
Portugaliya	4,9	7,2	7,9	10,3	12,3	13,5	13,4	13,2
Slovakiya	-	6,3	6,3	6,2	7,0	8,6	9,1	9,5
Sloveniya	-	-	10,5	9,9	10,9	12,2	12,5	13,3
Ispaniya	7,9	9,0	8,6	8,1	9,3	10,6	10,5	10,6
Shvetsiya	7,7	8,2	7,2	7,6	8,2	9,6	9,8	10,1
Buyuk Britaniya	4,8	5,4	5,3	5,6	6,2	7,0	7,3	7,7

³³ Скурова А.В. Развитие системы негосударственного пенсионного страхования в России и за рубежом: автореф. к.э.н. – Москва, Всероссийская академия внешней торговли. 2011. – С. 25.

³⁴ Островская Е. Трансформация социально-экономической модели Франции//Мировая экономика и международные отношения. – Москва, 2007. - №4. – С. 40-49.

Binobarin, Evropa Ittifoqining qator mamlakatlarida YaIMga nisbatan davlat pensiya ta'minoti tizimi xarajatlari 2009 yilda o'rtacha 9-10 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2020 yilga borib ushbu ko'rsatkich 12-13 foiz darajasida bo'lishi nazarda tutilmoqda.

Ko'pchilik mamlakatlarda keksalarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida maxsus qonunlar qabul qilingan. Masalan, Yaponiyada "Keksa kishilarning sog'ligini saqlash to'g'risida"gi, Rossiyada "Keksa fuqarolar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish to'g'risida"gi, Qirg'iziston Respublikasida "Qirg'iziston Respublikasining keksa fuqarolari to'g'risida"gi qonunlar amal qilmoqda va h.k. lar.

Hozirgi kunda O'zbekistonda pensiyalarning o'rtacha miqdori ish haqiga nisbatan 37,5 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich Rossiyada 25,7 foizdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa 23-28 foizdan iborat. Mamlakatimizda bu ko'rsatkichni 41 foizga etkazish ko'zda tutilmoqda. 2015 yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010 yildagi 47,1 foiz o'rniga 52 foizga o'sgani va bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqoridir³⁵.

Fuqarolarga pensiya tayinlashning amaldagi tizimini takomillashtirish, mavjud ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Mamlakat iqtisodiy salohiyati va odamlar ijtimoiy muhofazasi bilan bog'liq ushbu masalada belgilangan qonun-qoidalarga qat'iy amal qilinishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimlarini isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar umuman olganda ehtiyotkorlik bilan asta-

³⁵ <http://uza.uz>.

sekin, muhim tarkibiy o'zgartirish o'rniga ko'proq parametrik tuzatishlar ko'rinishida o'tkazilmoqda.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, jamg'ariladigan pensiya fondlari aktivlarining asosini qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar tashkil etadi. Xususiy pensiya fondlari pul mablag'larini uzoq muddatga joylashtiradi, xususiy va davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oladi. Xususiy pensiya fondi passiv operatsiyalari asosini korporatsiya va korxonalaridan keladigan resurslar tashkil etadi, tushumning 20-30 foizi ishchi va xizmatchilar badallaridan iborat. Ekspertlarning hisob-kitobi bo'yicha qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarning bir foiz oshishi to'lanadigan pensiyalar miqdorini bir necha foiz oshirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun ajratilgan mablag'lar o'sha qimmatli qog'ozlarni hozirgi real qiymati bo'yicha sotilgandan so'ng fuqarolarga pensiya ko'rinishida qaytariladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi uchun uzoq muddatli sarmoya etishmasligi va unga keskin ehtiyoj mavjud sharoitda xususiy pensiya fondlari, birinchidan, uzoq muddatli kreditlash fondlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, bunday tuzilmalarning yaratilishi byudjetning ijtimoiy ta'minot xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Jahon tajribasidan ma'lum bo'ldiki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish etarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o'zida uch yo'nalish: minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional assotsiatsiya yordamida o'zining ish beruvchilariga qo'shimcha pensiyani shakllantirish, fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida, xususiy pensiyani ta'minlash belgilangan. AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya, Italiya kabi mamlakatlar shu tajribalardan foydalaniladi.

Pensiya ta'minotining xususiylashtirish dasturi iqtisodiyotga investitsiyalarning ichki imkoniyatlarini taqdim etadi. Aynan, moliya sohasida pensiya islohotlariga ehtiyoj va iqtisodiy islohotlarning kengaytirilgan sohasi kesishadi. Kapital bozori rivojlanishi, pensiya fondlari pullarini investitsiya

qiladigan moliyaviy dastaklarini taqdim etish uchun juda muhim. Shu tarzda iqtisodiyotga investitsiyalarni yo'naltirish jarayonida davlat, jamg'arilgan va xususiy pensiya ta'minotini moliyalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimlari hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanadi, ular daromadni ta'minlash imkonini beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Natijada, pensiya to'lovlari ishlovchilarning nafaqat pensiyaga chiqqunga qadar bo'lgan ish haqidan, balki mehnat faoliyati mobaynida to'langan badallari miqdoriga hisoblangan foizni ifoda etadi. Bir martalik qayta taqsimlashda pensiya tizimidan farqli ravishda jamg'arib boriladigan pensiya tizimida jamg'arma badallari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zaxira fondi shakllantiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimining qo'llanishi mavjud pensiya tizimidagi kamchiliklarni kamaytirish va uning afzalligini kuchaytirishga yo'naltirilgan. Xorijiy davlatlarda bunday tarkibni umumlashgan uch darajali tizim shaklida tasavvur qilish mumkin:

– davlat nazorati ostida amalga oshiriluvchi umumiy va majburiy pensiya tizimi. Mazkur modelda pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog'liq, ish beruvchi va yollanma ishlovchidan olinadigan badallarni qayta taqsimlash tamoyili asosida moliyalashtiriladi;

– majburiy jamg'arma tizimi orqali beriladigan va minimal jamg'arma stajini “to'plagan” kishilar uchun davlat byudjetidan foydalanuvchi ijtimoiy pensiya tizimi;

– to'la kapitallashtirish va jamg'arish tamoyiliga asoslangan, individual hisob raqamlarni yuritish orqali amalga oshiriladigan pensiya tizimi.

Demak, ikki holatda ham davlat tizimi oldingidagidek keksaygan shaxslarga minimal pensiya yoki ijtimoiy himoyalash sifatida ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Xorijiy davlatlarida moliyaviy bozorning ma'muriy imkoniyatlari etarli darajada rivojlangan, davlat va jamg'ariladigan pensiya fondi faoliyatini tartibga solish va nazoratni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Hozir bizda ikki xil avlodlar birdamligi va jamg'arma tuzilmalarining tarafdorlari mavjud. Gap

shundaki, daromad miqdori kam bo'lgan fuqarolar o'zining barcha daromadlarini iste'mol qilishga majbur bo'lganligi sababli jamg'arish pensiya tizimiga o'ta olmaydi, biroq jamg'arish tizimidan butunlay voz kechish kerak, degan xulosa qilish ham noo'rindir.

Respublikamizda pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'lmaydi, ularni iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan: bandlik, mehnat bozori, aholi daromadlari, soliq, moliya va kredit sohasidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, pensiya ta'minoti darajasini ko'paytirish, buning uchun qo'shimcha zaxiralarni jalb etish, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan qo'shgan hissasiga bog'lash hamda nodavlat pensiya tizimini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Yuqoridagilardan kelib, pensiya tizimini barqarorligini ta'minlashda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish;
- ayollar va erkaklar o'rtasida pensiyaga chiqish yoshi va talab qilinadigan ish staj o'rtasidagi tafovutni kamaytirishni ko'rib chiqish;
- jamg'arib boriladigan pensiya tizimini yanada takomillashtirish;
- pensiyaga chiquvchi har bir davlat fuqarosini O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni bilan ommaviy axborot vositalari orqali tanishtirish lozim;
- ijtimoiy himoyalash, pensiya ta'minoti va shunga o'xshash masalalar yuzaga kelganda, avvalo aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini oshirishda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, oilani mustahkamlash, mehnat sharoitini yaxshilash, moliyaviy siyosatni mustahkamlash kabi masalalar alohida ahamiyatga ega.

Yuqoridagi xulosa va takliflarni amalga oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

3.2. Mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etish va takomillashtirish

Yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan, besh tamoyilga asoslangan va amaliyotga izchil joriy etilayotgan milliy taraqqiyot modeli mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil sanaladi. O'zbekiston tanlagan islohot yo'li ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu modelga asos bo'lgan mashhur besh tamoyildan biri aholini ijtimoiy muhofaza qilishga va kuchli ijtimoiy siyosat olib borishga yo'naltirilgan bo'lib, mamlakatimiz ichki siyosiy barqarorligini ta'minlovchi o'ta muhim shartlar sirasiga kiradi. U aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga iqtisodiy madad berish orqali fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni qaror toptirishning, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati, pensionerlar va nogironlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoyalash tizimining asosiy yo'nalishi bo'lib qoldi. Ijtimoiy himoya masalasi – bu faqat davlat va hokimiyat tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot va xayriya muassasalarining ishi bo'lib qolmasligi lozim. “Ijtimoiy” degan so'zning ko'pchilikka, jamoatchilikka mansub degan ma'noni ifoda etishini inobatga oladigan bo'lsak, bu o'ta muhim masala jamiyatimizning, barchamizning burchimizga aylanishi darkor³⁶.

Ijtimoiy siyosatning zaruriyati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida aholi uchun qiyinchiliklarni engillashtirish bilan bog'liq. Bundan tashqari, har qanday jamiyatda shunday shaxslar toifasi doimo mavjudki, ular ob'ektiv sabablarga ko'ra (pensiya yoshi, sog'lig'i, ishsizlik darajasi), ishlab chiqarishda ishtirok eta olishmaydi. Shu bois ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan YaIMning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi. Yanada tushunarliroq qilib aytganda, aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlatniig aholiga normal hayot

³⁶ <http://uza.uz>.

faoliyati uchun beradigan shart-sharoitlarini ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir.

Davlat xalq farovonligini ta'minlashni, barqaror va muttasil oshirishni, aholini ijtimoiy himoyalashni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Islohotlar faqat inson manfaatlarini ko'zlab va uning turmush farovonligini yaxshilash maqsadida olib boriladi.

Hozir respublikamizda ijtimoiy himoyani moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar joriy qilinmoqda. Ijtimoiy himoyaning siyosiy vazifasi bo'yicha jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni muhofazalash bo'yicha Konstitutsiya va qonunlarda kafolatlab qo'yilgan ijtimoiy va huquqiy normalarni ta'minlash maqsadida ijtimoiy muhofaza institutlari va mexanizmlari barpo etilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi kerak. Ijtimoiy himoyaning vazifasi pensiya ta'minotini amalga oshirish, mehnat jarayonida insonning salomatligi va mehnat qobiliyatini muhofazalash imkonini beradigan turkum tashkiliy-texnikaviy, tibbiy tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Mamlakatimiz aholisi yil sayin ko'payib bormoqda. Bu fuqarolarimizning munosib turmush darajasini ta'minlash va pensiya ta'minoti borasida ham muayyan mas'uliyatni keltirib chiqaradi. Ulardan asosiysi farovon hayot kechirish uchun etarli daromadga ega bo'lishdir. Prezidentimiz I.A.Karimov respublikamizda aholini ijtimoiy himoyalash vazifalarini bajarishning ahamiyati to'g'risida to'xtalarkan, shunday degan edi: "O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta. Yurtimizdagi 10 foiz ta'minlangan va 10 foiz etarlicha ta'minlanmagan aholi daromadlari o'rtasidagi farq, ya'ni "detsil koeffitsenti" deb nom olgan ko'rsatkich barqaror pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, bu raqam 2010 yildagi 8,5 foiz o'rniga 2015 yilda 7,7 foizni tashkil etdi. Daromadlar o'rtasidagi farqni ifoda etadigan yana bir

xalqaro ko'rsatkich – Jini indeksi mamlakatimizda 2010 yildagi 0,390 o'rniga 2015 yilda 0,280 ni tashkil etdi va bu natija dunyoning ko'plab iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlariga qaraganda ancha pastdir. 2015 yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi³⁷.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan eng muhim huquq – pensiya ta'minoti huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. “Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi”. Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek, marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borish bilan birga, ijtimoiy himoyalash va kafolatlashning kuchli, tizimli va ta'sirchan mexanizmini yaratish va ijtimoiy barqarorlikka erishish maqsadida, Yurtboshimiz 2009 yil 30 dekabrda “Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 4161-sonli Farmonga imzo chekdi. Shunga ko'ra, pensiya va nafaqalarni tayinlash, to'lovini monitoring qilish, hisobini yuritish Moliya vazirligi huzurida yangidan tashkil etilgan Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirila boshlandi.

Respublikamizda aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyalash tizimini joriy qilish, pensiya ta'minoti tizimining umumiy asoslari ishlab chiqilganiga qaramay, pensiya ta'minoti sohasini rivojlantirishda hali hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar ham ko'p. Davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, pensionerlarning moddiy farovonligini oshirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash uchun 1993 yili qabul qilingan

³⁷ <http://uza.uz>.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonunga bir qator o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi. Yangi qonun O’zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi (Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish, bunda qonunchilikka muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi mavjud bo’lganda” so’zlari) bilan to’ldirildi. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda hayotga izchil joriy etilayotgan hamda alohida tayyorgarlik talab qiladigan zamonaviy axborot va ishlab chiqarish texnologiyalariga xodimlarning ko’nikma va tayyorgarligini oshirish, pensiya oluvchilarning jismoniy imkoniyatiga mehnat vazifalari mos kelishini ta’minlash va ular uchun mehnat faoliyatining maqbul sharoitlarini yaratishdan iboratdir. Bunda pensiya yoshiga etgan xodimlar mehnat qilishi uchun maqbul sharoitlarni yaratishga, zarur hollarda ularni engilroq vazifalarga o’tkazishga, shuningdek, mehnatga oid munosabatlarni boshqarishni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi Qonunga kiritilgan o’zgartirish va qo’shimchalarda ijtimoiy mo’ljalning universalligi tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirish, fuqarolar pensiyasini hisoblab chiqarish uchun olinadigan o’tgan yillardagi ish haqlarini pensiya tayinlanadigan kundagi ish haqi darajasiga keltirish uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladigan tartibga asosan qayta hisoblash lozimligi nazarda tutilgan.

Pensiya ta’minoti qonunchiligiga kiritilgan mazkur o’zgartirishlar fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti masalalarini hamda mehnatga oid munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish, uning ilg’or xorijiy tajriba va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mosligini ta’minlash, pirovardida pensiya ta’minotida ijtimoiy adolat tamoyillarini kuchaytirish, yuqori ish haqi olib ishlagan fuqarolarga mutanosib miqdorda pensiyalar tayinlash imkonlarini beradi va pensiyalar miqdorini ustuvor tarzda oshirishga xizmat qiladi.

Barcha mamlakatlarda pensiya sohasida pensiya yoshini uzaytirish, pensiyani hisoblash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar dolzarb

hisoblanadi. O'zbekistonda ham yaqin istiqbolda pensiya tizimi islohotlari izchilligini ta'minlash, bunda bevosita rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasidan keng foydalanish ko'zlangan maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotida davlatning etakchilik roli katta ahamiyatga ega, ya'ni iqtisodiyotni erkin tadbirkorlik bilan davlat tomonidan boshqarish "birlashib ketgan". Davlatning asosiy boshqarish dastagi soliq va moliya siyosati orqali tadbirkorlikka ta'sir etish hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urta badallari aksariyat davlatlarda majburiy xarakterga ega bo'lib, ham yollanma mehnatkashlardan, ham tadbirkorlik sub'ektlaridan undiriladi. Ayrim mamlakatlarda ba'zi kasb egalari (advokat, shifokor, me'mor, artist va boshqalar) tomonidan ham badallar belgilangan.

Umuman, dunyo amaliyotida tashkiliy-huquqiy jihatdan ikki xil ko'rinishdagi pensiya tizimi amal qiladi:

1. Davlat pensiya tizimi.
2. Nodavlat pensiya tizimi.

Shundan kelib chiqqan holda rivojlangan davlatlar pensiya tizimi tajribasining O'zbekistonda qo'llash mumkin bo'lgan jihatlarini asoslash maqsadida qator mamlakatlar tajribasini tadqiq qilamiz.

Chexiyada davlat va xususiy pensiya tizimi amal qiladi. Aholisi tez sur'atlar bilan keksayayotgan bu mamlakatda umr ko'rish davomiyligi 2005 yildan hozirga qadar erkaklar uchun 7,1 yilga (72,6 yoshdan 79,7 yoshga), ayollar uchun 5,1 yilga (79 yoshdan 84,1 yoshga) ortgan. Demografik bog'liqlik darajasi (umumiy aholiga nisbatan 65 yoshdan oshganlar soni) 2010 yildagi 17,9 foizdan 2020 yilda 20,2, 2030 yilda 22,9, 2040 yilda 25,3, 2050 yilda 30,9, 2060 yilda 33,4 foizgacha ortishi prognoz qilinmoqda. 2060 yilga borib, aholining 65 yoshdan yuqori qismi soni 1,6 mln. kishidan 3,2 mln. kishigacha, 75 yoshdan yuqori qismi soni 0,7 mln.dan 2,0 mln. kishigacha, 85 yoshdan yuqori qismi esa 0,2 mln.kishidan 0,7 mln. kishiga ortishi kutilmoqda.

Chexiya davlatida hozirga paytda bir nafar pensionerga mehnatga layoqatli 1,8 shaxs to'g'ri keladi, 2050 yilda bu ko'rsatkich 1,2 bo'lishi taxmin

qilinmoqda. Chexiyada davlat pensiya tizimi mablag'lari ish haqidan to'langan sug'urta to'lovlaridan kelib chiqib, ish beruvchi tomonidan to'langan sug'urta to'lovlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'lovchi to'lovlar hisobiga shakllantiriladi. Mamlakatda xususiy pensiya fondlarining faoliyati Moliya vazirligi tomonidan nazorat qilinishidan maqsad turli xil ko'rinishdagi risklardan saqlanishdir. Fuqarolar xususiy pensiya jamg'armasidagi pullarini 60 yoshdan keyin olish huquqiga ega. Chexiya pensiya ta'minotining 90 foizidan ortig'i davlat ulushiga, qolgani xususiy pensiya fondlari hissasiga to'g'ri keladi. Davlat va xususiy pensiya ta'minoti uzviy bog'langan. Xususiy fondlarga o'tkaziladigan summaning limiti 3 foiz qilib belgilangan. Xususiy pensiya fondiga kirish ixtiyoriy, lekin kirgandan keyin pensiya yoshiga etgunga qadar majburiy to'lov amalga oshiriladi. Fuqarolar biror xususiy pensiya fondidan boshqa fondga o'tishi har besh yilda bir marta amalga oshirilishi mumkin. Chexiya pensiya tizimida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyilidan foydalaniladi. Pensiya yoshining o'zgarishi birdaniga emas, ijtimoiy adolatlilikni ta'minlash maqsadida aholiga sezilarli ta'sir etmaydigan tartibda amalga oshirilmoqda, jumladan, pensiyaga chiqish yoshi 2 oyga oshirib borilmoqda³⁸.

AQShda federal soliqlar orasida ijtimoiy sug'yptaga solinadigan soliq mavjud. Ijtimoiy sug'urtalashga ajratmalar federal byudjet daromadlarining miqdor jihatidan ikkinchi moddasi bo'lib, federal byudjetga keladigan soliq tushumlarining 34,1 foizini tashkil etadi. Ish beruvchi va xodimlar badallarni har bir xodimga bir xil hisoblab chiqariladigan stavka bo'yicha to'laydilar. Ijtimoiy ta'minotga ajratmalar ko'rinishidagi stavka 6,2 foiz miqdorida (soliqning eng yuqori miqdori – 76200 dollar), tekin tibbiy yordamga esa 1,45 foiz miqdorida belgilangan.

Yollanma xodim va ish beruvchilar uchun umumiy kombinatsiyali (aralash) stavka 15,3 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, ish beruvchilardan ish

³⁸ www.opac.skunb.ru – Пенсионная реформа в Чехии: цели и риски.

haqi fondining 6,2 foizi miqdorida ishsizlik nafaqasiga ajratmalar undiriladi (soliqning eng yuqori miqdori – 434 dollar).

Rossiya Federatsiyasida tushumlar mamlakatning byudjet tizimiga emas, balki davlatning byudjetdan tashqari tegishli ijtimoiy fondlariga kiritib qo'yiladigan yagona ijtimoiy soliq tizimida alohida o'rin tutadi. Yagona ijtimoiy soliq sub'ektlari turli toifalari daromadlari, tovar (ish va hizmat)lar qiymatining summalaridan quyidagicha hisoblab chiqariladi: 17,6 foiz (plyus belgilangan minimumdan tashqari 2,0 dan 10 foizgacha) dan 36,6 foiz (plyus belgilangan minimumdan tashqari 2,0dan 20 foizgacha)ga kadar, shu jumladan, Rossiya Federatsiyasi nafaqa fondiga 14 foiz (plyus belgilangan minimumdan tashqari 2 dan 8 foizgacha); Rossiya Federatsiyasi Ijtimoiy sug'urta fondiga 2,9 foiz (plyus belgilangan minimumdan tashqari 1,1 dan, 2 foizgacha)dan 4,0 foiz (plyus belgilangan minimumdan tashqari 1,1 dan 2,2%gacha)ga qadar; federal tibbiy sug'urta fondiga 0,1 foiz (plyus belgilangan minimumdan tashqari 0,1 foiz)dan 0,2 foiz (plyus belgilangan minimumdan tashqari 0,1%)gacha; xududiy tibbiy sug'urta fondiga 2,5 foiz (plyus belgilangan minimumdan tashqari 0,9 dan 1,9 foizgacha) miqdorida.

Soliqqa tortiladigan daromaddan chegirmalar, standart chegirmalar 300–3000 rublgacha, ijtimoiy chegirmalar – 38000 rubl har bir o'qiyotgan va davolanayotgan farzand uchun, mulkiy chegirmalar – 125000–1000000 rublgacha, kasbiy chegirmalar 20–40 % gacha.

Germaniya pensiya tizimi Avstriya, Italiya, Frantsiya va G'arbiy Evropadagi boshqa ko'plab davlatlarda amal qiladi, “uch pog'onali tizim” sifatida xarakterlanadi:

1. Birinchi pog'ona – majburiy pensiya sug'urtasi. Mazkur pog'ona o'z navbatida 4 ga ajratiladi: ishchi va xizmatchilar hamda aholining ayrim toifalari (san'at ustalari va yozuvchilar, hunarmandlar, uyda xizmat qiluvchilar va b.)ning pensiya sug'urtasi; davlat xizmatchilari pensiya ta'minoti; fermerlar va ularning oila a'zolari uchun yoshga doir yordamlar; professional guruhlar

(vrachlar, farmatsevtlar, veterinarlar, arxitektorlar, advokatlar, notariuslar va h.k.) bo'yicha pensiya ta'minoti.

Germaniyada davlat pensiyasi taqsimot xarakteriga ega, u fuqarolarning ish haqi va ish stajiga bog'liq. Germaniyaning alohida xususiyatli jihati shundaki, ish beruvchi va ishchi davlat pensiya fondiga bir xil foizda mablag' o'tkazadi. Bugungi kunda bu 19,4 foizni tashkil etadi³⁹.

2. Ikkinchi pog'ona – "korxonadan pensiya". Ko'pchilik korxonalar sobiq xodimlariga qonun bilan belgilanuvchi pensiya sug'urtasiga qo'shimcha ravishda pensiya to'laydi. Keksalikdan himoyaning mazkur shakli ixtiyoriy hisoblanadi, ya'ni korxonalar sobiq xodimiga qo'shimcha pensiya tayinlash va to'lashni o'zi mustaqil hal etadi.

3. Uchinchi pog'ona – xususiy usul orqali o'z keksaligi yuzasidan g'amxo'rlik. Mazkur pog'ona xususiy kapitalni shakllantirishning barcha turlarini (ko'chmas mulk sotib olish, qimmatli qog'ozlar fondini tashkil etish, uzoq muddatli jamg'arma shartnomalarini imzolash va b.) qamrab oladi. Izlanishlar, tadqiqotlar va kuzatishlardan kelib chiqib aytsak, ko'pchilik mamlakatlarda pensiya jamg'armasiga ham ish beruvchi, ham yollanma ishchilar majburiy pensiya badalini to'laydilar. Shunday mamlakatlar ham mavjudki, ularda ish beruvchilarga nisbatan yollanma ishchilarning pensiya badali yuqori hisoblanadi. Ko'pchilik mamlakatlarda ish beruvchilarning pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar miqdori yuqori. Har ikkala holatda ham pensiya jamg'armasi o'z daromadlari bilan xarajatlarini qoplay, olmasligi sababli pensiya ta'minoti tizimida davlat ishtiroki kuzatiladi. Tahlillar dalolat beradiki, barcha mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tashkil qilingan maqsadli jamg'armalarga to'lovlar soliqlarga tenglashtirilgan va davlat tomonidan doimiy nazorat qilib boriladi. Ularning ba'zilar to'liq davlat maqsadli jamg'armalari tomonidan, ayrimlari korxonalar va tashkilotlar o'z ishchi va xizmatchilarining ijtimoiy himoyasiga ko'proq mablag' ajratishi bilan farqlanadi.

³⁹ www.bundesfinance.org sayti ma'lumotlari.

Fikrimizcha, O'zbekistonda istiqbolda pensiya tizimi mablag'lari barqarorligini ta'minlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlarni hisoblashda soliq solinadigan bazaning eng yuqori miqdorini belgilash va mazkur bazadan yuqori daromadga jismoniy shaxslar uchun regressiv stavkalarni joriy etish;
- pensiya tizimidagi islohotlarda bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyiliga qat'iy rioya etish.

Pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish sohasidagi asosiy vazifa Pensiya jamg'armasiga to'lanadigan badallar va pensiya to'lovlari miqdori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rnatishdir. Bu ishchilarning badallar to'lashdan manfaatdrligini oshirish, byudjetga og'irlikni kamaytirish maqsadida davlat tizimi miqdorini qisqartirish, ishchilar va ish beruvchilar to'laydigan badal stavkasini pasaytirish va kelajakda jamg'arish tizimini amalga oshirishga zamin tayyorlash uchun zarurdir. Bunday holatga birdamlik taqsimlash darajasini shartli-jamg'arish chizmasiga aylantirish yoki ish haqiga bog'langan, belgilangan to'lovli chizmani o'zgartirish va qisqartirish orqali erishiladi.

Mamlakatlarning ko'p darajali pensiya tizimiga o'tishiga muvofiq, xususiy pensiya jamg'armalarini boshqarishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, hisob-kitlolarni olib borish, badallarni yig'ish, hususan, pensiya jamg'armalari faoliyati ustidan nazorat yuritish va tartibga solish bo'yicha institutsional salohiyatni shakllantirish kabi muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pensiya taminoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida Prezidentimizning 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1252-sonli Qarori qabul qilindi. Qaror nizomiga muvofiq, Pensiya jamg'armasining daromadlari manbalari va xarajat yo'nalishlari belgilandi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, pensiya tizimi samarali amal qilishi uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar o'rtasida ma'lum darajada muvozanat bo'lishi lozim. Biroq, demografik prognozlar respublikada aholining keksayish jarayoni nisbatan tezlashishini va bu muvozanat o'zgarishini, ya'ni keksalarning iqtisodiy faol aholiga to'g'ri keladigan demografik yuki ortib borishini ko'rsatmoqda. Bu holat iqtisodiy faol aholidan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari bozor nuqtai nazaridan kamayishini, ya'ni ishlayotganlarning badallari pensiyalarni to'lash uchun ham etmasligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida hozirdan Pensiya jamg'armasining moliyaviy holatini yaxshilashni talab etadi.

O'zbekistonda Pensiya jamg'armasi moliyaviy holatini yaxshilashning qator imkoniyatlari mavjud. Ulardan biri Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanishdir. Respublika Pensiya jamg'armasi mablag'larining 87,5 foizini haqiqiy pensiya to'lovlari, qolgan 23,5 foizini moliyalash bilan qoplanmaydigan qo'shimcha xarajatlar (pensiyaga ustamalar, ijtimoiy nafaqalar, harbiy xizmatchilarga pensiya to'lovlari) tashkil etgan. Moliyalash bilan qoplanmaydigan qo'shimcha xarajatlar davlat byudjetining boshqa manbalaridan moliyalashtirilsa, birinchidan, Pensiya jamg'armasi mablag'larining maqsadlilik oshadi, ikkinchidan, uning moliyaviy ahvoli yaxshilanadi.

Respublikada Pensiya jamg'armasi moliyaviy holatini yaxshilash yo'llaridan biri imtiyozli pensiya tayinlanishini kamaytirish. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda respublikamizda yoshga doir pensiya oluvchilar o'rtasida imtiyozli asosda pensiyaga chiquvchilarning hissasi ortib bormoqda. Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida kuzatilayotgan quyidagi xususiyatlar imtiyozli asosda tayinlanadigan pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Jumladan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning kiritilishiga katta e'tibor qaratilayotganligi sababli, iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlaridagi mehnat sharoiti avvalgidek zararli va og'ir hisoblanmaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar respublikada imtiyozli pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Bu esa, pensiyaga chiqish o'rtacha yoshini pensiya tizimi islohotidagi ilk bosqichlarda erkaklar uchun 1,5 yilga, ayollar uchun 2 yilga ko'tarish imkonini beradi. Evropa Ittifoqining (EI) ko'pgina mamlakatlarida pensiya yoshi qilib, erkaklarga ham, ayollarga ham 65 yosh belgilangan. Pensiyaga chiqish uchun eng katta yosh Daniyada – erkaklar va ayollar uchun 67 yosh. MDHga kiruvchi aksariyat mamlakatlar pensiyaga chiqish yoshini qonun yo'li bilan ko'tardi. Jumladan, Ozarbayjon, Moldova va Turkmanistonda pensiyaga chiqish yoshi erkaklar uchun – 62 yoshga, ayollar uchun – 60 yoshga, Armanistonda erkaklar uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 60 yoshga, Qozog'istonda erkaklar uchun – 63 yoshga, ayollar uchun – 58 yoshga ko'tarilgan. O'zbekistonda islohotning keyingi bosqichlarida ayollar va erkaklar pensiya yoshini bir xil qilish lozim – ayollarning umr uzunligi ko'prok va tabiiyki, erkaklar milliy daromad yaratilishida ayollarga nisbatan faol harakat olib boradi. Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibida bevosita ayollarga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlar sodir bo'lmoqda. Jumladan: ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ayollar salmog'i ortib bormoqda; ayollarga erkaklarga nisbatan tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining yuqoriligi saqlanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pensiya ta'minotini takomillashtirish bo'yicha kontseptsiya ishlab chiqish va unda pensiya tizimida amalga oshiriladigan asosiy ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish zarur. Bunda mamlakatning demografik o'zgarishlari, aholi daromadlarining o'sishi, pensiya jarayonida ishtirok etuvchilarning huquqiy ongini oshirish kabi vazifalarni o'z ichiga qamrab olishi lozim bo'ladi. Pensiyaga chiqish yoshini oshirish va vaqtli pensiyaga chiqish shartlarini keskinlashtirish yoki kechroq chiqish holatini qo'llab-quvvatlash, badal va to'lovlar holatlarini ko'rib chiqish va h.k.

Ish o'rinlarini ko'paytirish bilan birga aholini ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga jalb qilish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi 1438-sonli "2011-2015 yillarda

respublika moliya bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorida Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlar talablariga muvofiq, tijorat banklarini yanada kapitallashtirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, resurs bazasini ko'paytirish, aktivlar sifatini yaxshilash, bank ishini takomillashtirish hisobiga banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish hamda omonatchilar uchun kafolatlarni kuchaytirish va bank tizimiga aholi xamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash yo'li bilan aholi hamda xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga keng jalb etish bo'yicha tizimli chora tadbirlarni amalga oshirish belgilandi. Yuqorida aytilgan Prezident qarorini ijro etish maqsadida Xalq bankining boshqaruv qarori bilan ixtiyoriy jamg'arib boriladigan pensiya badallariga yillik 24 foiz daromad berilishi belgilandi.

Jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larini kafolatlangan investitsiyalarga jalb etish. Bunda Xalq banki tomonidan boshqa tijorat banklariga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan past bo'lmagan shartlarda investitsiya qilish kerak.

O'z oldiga sug'urta staji davomiyligiga va muayyan ishchining butun ish faoliyati davomida jamg'arish holatiga tayanganib, pensiya hajmini hisoblab chiqishni o'z oldiga maqsad qilgan pensiya hajmini hisoblashning yangi mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Istiqbolda yuqoridagi chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi mustaqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining takomillashuviga xizmat qiladi.

XULOSA

Musatqil O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalalari yuzasidan quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Pensiya – qonun tomonidan kafolatlangan va fuqarolarni keksaligida, qisman yoki to'liq mehnatga layoqatsizligi, boquvchisini yo'qotganda hamda mehnat faoliyatining muayyan sohasida ma'lum ish stajiga erishgan paytida ta'minlashga qaratilgan pullik to'lovdur. Qayd etish joizki, pensiya qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo'qotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to'lovidir.

2. Jahon amaliyotida pensiya tizimlarining hamjihat mas'uliyat tizimi (hozirda ishlayotgan avlod oldingi avlodning pensiyalarini mablag' bilan ta'minlash uchun badallar to'laydi) va jamg'arma tizimi (har bir ishlovchi xodim mehnat faoliyati davomida o'zining qarilik davrini ta'minlash uchun maxsus pensiya jamg'armalarida mablag' yig'ib boradi) mavjud. Shuningdek, xususiy pensiya tizimiga asoslangan korporativ pensiya ta'minoti amal qiladi.

3. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi ikki turga ajratiladi: davlat pensiya ta'minoti tizimi va fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi.

4. XXI asrga kelib pensiya ta'minoti tizimini isloh etish dunyoning barcha mamlakatlari oldida turgan dolzarb va muhim vazifalardan biriga aylangan. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarini bajarishi uchun moliyaviy resurslarining etishmasligidir va bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan alohida ahamiyat kasb etadi.

5. O'zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlarini besh guruhga ajratish mumkin:

5.1) *Birinchi bosqich (1918-1956 yillar)* davrida mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lganlarga, qariyalarga va ko'p yillik xizmatlari uchun kabi pensiya turlari joriy etildi. Ayollar va erkaklarga yoshiga qarab pensiya belgilash ham o'sha davrda qaror topdi.

5.2) *Ikkinchi bosqich (1956-1990 yillar)* davrida davlat pensiya ta'minoti to'g'risida ilk bor yagona qonun ("Davlat pensiyalari to'g'risida"gi) qabul qilindi (1956). Bu qonunga asosan barcha tarmoq ishchi-xizmatchilari uchun (kolxozchilardan tashqari) yagona pensiya tartibi belgilandi.

5.3) *Uchinchi bosqich (1990-1994 yillar)* mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlari tartibiga o'ta boshlagach, pensiya ta'minotida ham islohotlar o'tkazilishi bilan boshlandi. Bu bosqichda ilk bor pensiya jamg'armasi, ijtimoiy pensiya, daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo bo'ldi. 1990 yilda o'sha davrdagi pensiya ta'minotining huquqiy asosi bo'lgan "SSSRda fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

5.4) *To'rtinchi bosqich (1994-2004 yillar)* – O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni (1993 yil 3 sentyabr) qabul qilinib, 1994 yildan amalda joriy etilishi bilan boshlandi. Ushbu qonunga ko'ra pensiyalar miqdori mehnat staji va o'rtacha ish haqiga yanada uzviy bog'landi.

5.5) *Beshinchi bosqich (2005 yildan hozirga davrga qadar)* – davlat pensiya ta'minoti bilan birga fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti amal qila boshladi. 2005 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni kuchga kirdi. Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari, jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi (badal kirituvchi), jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i kabi tushunchalar qo'llanila boshlandi.

6. O'zbekistonda davlat pensiya ta'minotini umumiy boshqarishni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan Oliy majlis, O'zbekiston

respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devoni amalga oshiradi. Davlat pensiya ta'minotini operativ boshqarish esa moliyaviy apparatga yuklatilgan. Uning yordamida davlat pensiya ta'minotining barcha tarkibiy bo'g'inlarida moliyaviy faoliyat ustidan boshqaruvni amalga oshiradi. Aynan moliyaviy apparat moliyaviy rejalashtirish, hisob va tahlil, nazorat va tartibga solish, moliyaviy rejalarni tuzish va boshqarish ishlarini bajaradi.

7. Qayd etish joizki, Pensiya jamg'armasi daromadlari tarkibida eng katta ulushni yuridik shaxslar ish haqi fondidan ajratmalar tashkil etadi. Ushbu ajratmalar hisobidan fondning 2012 yilda 59,5 foizi, 2013 yilda 51,7 foizi, 2014 yilda 56,1 foizi, 2015 yil bo'yicha esa 50,3 foizi shakllantirilgan. Kattaligi jihatidan keyingi o'rinda mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar turadi, ular bo'yicha tushumlar Jamg'arma daromadlarining 2012 yilda 17,4 foizini, 2013 yilda 15,4 foizini, 2014 yilda 14,9 foizini, 2015 yil bo'yicha esa 12,5 foizini tashkil qilgan. Fuqarolarning majburiy badallarining ulushi 13,8-14,9 foizni tashkil etadi. Boshqa daromadlarning Pensiya jamg'armasi daromadlaridagi ulushi uncha katta emas.

8. Jahon tajribasidan ma'lum bo'ldiki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish etarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o'zida uch yo'nalish: minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional assotsiatsiya yordamida o'zining ish beruvchilariga qo'shimcha pensiyani shakllantirish, fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida xususiy pensiyani ta'minlash belgilangan. AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya, Italiya kabi mamlakatlar shu tajribalardan foydalaniladi.

9. Respublikamizda pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'lmaydi, ularni iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan: bandlik, mehnat bozori, aholi daromadlari, soliq, moliya va kredit sohasidagi islohotlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, pensiya ta'minoti darajasini ko'paytirish, buning uchun qo'shimcha zaxiralarni jalb etish, ishchining pensiyasini bevosita uning o'z mehnati bilan

qo'shgan hissasiga bog'lash hamda nodavlat pensiya tizimini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

10. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, pensiya tizimi samarali amal qilishi uchun pensionerlar va ishlayotgan fuqarolar o'rtasida ma'lum darajada muvozanat bo'lishi lozim. Biroq, demografik prognozlar respublikada aholining keksayish jarayoni nisbatan tezlashishini va bu muvozanat o'zgarishini, ya'ni keksalarning iqtisodiy faol aholiga to'g'ri keladigan demografik yuki ortib borishini ko'rsatmoqda. Bu holat iqtisodiy faol aholidan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari bozor nuqtai nazaridan kamayishini, ya'ni ishlayotganlarning badallari pensiyalarni to'lash uchun ham etmasligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida hozirdan pensiya jamg'armasining moliyaviy holatini yaxshilashni talab etadi.

11. Respublikada Pensiya jamg'armasi moliyaviy holatini yaxshilash yo'llaridan biri imtiyozli pensiya tayinlanishini kamaytirish. Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda respublikamizda yoshga doir pensiya oluvchilar o'rtasida imtiyozli asosda pensiyaga chiquvchilarning hissasi ortib bormoqda. Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashishi sharoitida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishida kuzatilayotgan quyidagi xususiyatlar imtiyozli asosda tayinlanadigan pensiyadan butunlay voz kechishga imkon beradi. Jumladan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarning kiritilishiga katta e'tibor qaratilayotganligi sababli, iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlaridagi mehnat sharoiti avvalgidek zararli va og'ir hisoblanmaydi.

O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini samarali tashkil etish va takomillashtirishda quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Pensiya ta'minoti tizimi barqarorligini ta'minlashda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish; ayollar va erkaklar o'rtasida pensiyaga chiqish yoshi va talab qilinadigan ish staj o'rtasidagi tafovutni kamaytirish masalasini ko'rib chiqish;

jamg'arib boriladigan pensiya tizimini yanada takomillashtirish; pensiyaga chiquvchi har bir davlat fuqarosini O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni bilan ommaviy axborot vositalari orqali tanishtirish lozim; ijtimoiy himoyalash, pensiya ta'minoti va shunga o'xshash masalalar yuzaga kelganda, avvalo aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini oshirishda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, oilani mustahkamlash, mehnat sharoitini yaxshilash, moliyaviy siyosatni mustahkamlash kabi masalalar alohida ahamiyatga ega.

2. Pensiya ta'minotida joriy etilgan yagona axborot tizimidan keng ko'lamda foydalanish zarur. 2015 yil 19 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2015-2017 yillarda pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 297-sonli qarorida belgilangan vazifalarning izchil ijrosini ta'minlash lozim. Shuningdek, Pensiya jamg'armalarida ishlovchi xodimlarning pensiya ta'minotidagi axborot tizimlardan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish kerak.

3. Jahon tajribasiga asoslanib, mamlakatimizda nodavlat pensiya jamg'armalarini tashkil etish va ular faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish zarur.

4. Amaldagi majburiy pensiya tizimi jozibadorligini oshirish lozim. Bunga quyidagilarni kiritish mumkin: a) uy-joy sotib olish va b) ta'lim uchun to'lov kabi holatlarda (shaxsiy) individual jamg'arma hisob raqamlardan muddatidan oldin mablag'larni echishga ruhsat berish; pensiya ta'minotining korporativ tizimini ishlab chiqish, masalan, katta ho'jalik uyushmalari va korxonalar ("O'zbekiston temir yo'llari" va boshqalar) ixtiyoridagi pensiya jamg'armalari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2001. - 39 b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son. 03.09.1993.
4. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son. 02.12.2004.
5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 29-30-son, 277-modda.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-376-son. 25.09.2014.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-son Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1251-son Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1252-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 mayda "2011-2015 yillarda yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni

yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1542-son Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-sonli qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 18 fevralda "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2302-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 oktyabrda "2015-2017 yillarda pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 297-sonli qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 23 dekabrda "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq pensiyalarni to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 357-son qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentabrda "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 252-son Qarori.

16. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 1995. – 265 b.

17. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: "O'zbekiston", 2011. – 24 b.

18. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: "O'zbekiston", 2012. – 32 b.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi: Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni,

iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. <http://uza.uz>.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

20. Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.

21. Борисенко Н.Ю. Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К°», 2009. – 576 с.

22. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: “Noshir”, 2012. – 712 bet.

23. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (To'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). A. O'lmasov, A. Vahobov. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2014. – 424 b.

24. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. – T.: «infoCOM.uz», 2009. – 192 b.

25. Inson taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: “Iqtisodiyot”, 2013. – 120 b.

26. Карчевский В.В. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. – М.: “Вузовский учебник”, 2011. – 224 с.

27. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Davlat moliyasi: Test (savol-javob)lar. Toshkent Moliya instituti. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2014. – 496 b.

28. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010. – 660 b.

29. Malikov T., Jalilov P., Budjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. – 472 b.

30. Mirzamaxmudov M.M. Davlat maqsadli jamg'armalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy tejamkorlik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 112 b.

31. Nuritdinova V.Sh., Sharopova M.A. Moliyaviy nazorat. O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent Moliya instituti. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 344 b.

32. Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 224 b.
33. Островская Е. Трансформация социально-экономической модели Франции//Мировая экономика и международные отношения. – Москва, 2007. - №4. – С. 40-49.
34. Po'latov D., Nurmuxamedova V. G'aznachilik / darslik.. – Toshkent: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.
35. Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasi budget tizimi. – T.: «INFOCOM.uz», 2010. – 480 b.
36. Скурова А.В. Развитие системы негосударственного пенсионного страхования в России и за рубежом: автореф. к.э.н. – Москва, Всероссийская академия внешней торговли. 2011. – 26 с.
37. Тухтарова М.С. Пенсионное обеспечение граждан. Справочник для населения – Ташкент: “NORMA”, 2010. – 360 с.
38. Qosimova G.A, Karimova Z.X. Byudjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYa”, 2009. – 202 b.
39. Qosimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. – T.: “Tamaddun”, 2015. – 108 b.
40. Xaitov A., Ziyadullaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorij tajribasi. – T.: “Adolat”, 2009. – 172 b.
41. Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник - 2-е изд. – М.: «Дашков и К», 2010. – 396 с.
42. Федоров Л.В. Пенсионный фонд Российской Федерации. Учебник. – М.: “ЮРАЙТ”, 2012. – 396 с.
43. O'zbekiston: Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti printsiplarini amalga oshirishning parlament tomonidan ta'minlanishi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, O'zbekistondagi BMT Taraqqiyot dasturi. Amaliy qo'llanma. 2011.

44. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to’plami. – T.: “Universitet”, 2014.

45. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – 467 P.

III. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar, hisobotlar, normativ hujjatlar

46. Abdullaev Z.A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish muammolari. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to’plami. – T.: “Universitet”, 2014.

47. Davronov Sh.Z. Davlat pensiya ta’minoti tizimi barqaror rivojlanmoqda va yanada takomillashtirilmoqda. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to’plami. – T.: “Universitet”, 2014.

48. Mirzakarimova M. Nogironlar bandligi muammosini hal qilishda ijtimoiy sheriklik. “Iqtisod va moliya” jurnali. – Toshkent. 2013. № 7. – B.35-41.

49. Nurmuxamedova B. Aholi turmush farovonligini oshirishdagi ijtimoiy hamkorlik yo’nalishlari. Ijtimoiy hamkorlik – iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. Toshkent. 2014 yil. 16 aprel. – B. 76-78.

50. To’raev F.N. O’zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish yo’nalishlari. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to’plami. – T.: “Universitet”. 2014.

51. Vahabov A.V., Raxmonov Sh.I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimini isloh etishga ta’siri. Ijtimoiy hamkorlik – iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish omili. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. – T.: 2014 yil 16 aprel. – B. 20-31.

52. Xaydarov A. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi tahlili. "Moliya" ilmiy jurnali. 2/2014. 87-b.

53. "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarori bilan tasdiqlangan.

54. "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi 252-sonli Qarori bilan tasdiqlangan.

55. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq pensiyalarni to'lashga xarajatlarni qoplash tartibi to'g'risidagi Nizom" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 23 dekabrdagi 357-son qarori bilan tasdiqlangan.

56. "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlarni to'lashni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2015 yil 30 yanvardagi 6-son buyrug'iga ilova.

57. "O'zgaralar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish haqida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011 yil 1 iyuldagi 38-B-son buyrug'iga ilova.

58. "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan.

59. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. 2-tom.

60. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik to'plam. T.: "O'zbekiston", 2011.

61. O'zbekiston raqamlarda. – 2015. Statistik to'plam. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.

62. O'zbekiston aholisi. – 2015. Statistika to'plam. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.

IV. Internet saytlari

- www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali);
- www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti);
- www.undp.uz (BMTTD rasmiy sayti);
- www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi);
- www.publicfinance.uz (O'zbekistonda budjet islohotlari loyihasi sayti);
- www.stat.uz (O'zbekiston Davlat statistikasi qo'mitasi sayti);
- www.google.ru/modules/down/12369;
- <http://pfru.uz/uz/articles/5>;
- <http://gazeta.norma.uz/publish/doc>;
- <http://uza.uz>;
- www.opac.skunb.ru;
- www.bundesfinance.org.